IAS 16 standartiga muvofiq, korxonalar asosiy vositalarni hisobga olishda qiymat modeli yoki qayta baholash modelini tanlash huquqiga ega. Qayta baholash modeli aktivlarning adolatli qiymatini muntazam ravishda aniqlash va moliyaviy hisobotda aks ettirishni nazarda tutadi. Bunda qayta baholash natijasida vujudga kelgan farq kapital tarkibida “Qayta baholash zaxirasi” sifatida e’tirof etiladi.

IAS 16 (International Accounting Standard 16) — bu xalqaro buxgalteriya standarti bo‘lib, u asosiy vositalarni (Property, Plant and Equipment – PPE) tan olish, baholash, amortizatsiya qilish va hisobotda aks ettirish tartibini belgilaydi.

Ushbu standartni International Accounting Standards Board (IASB) ishlab chiqadi va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) tizimiga kiradi.

Uni International Accounting Standards Board (IASB) 2016 yilda qabul qilgan va 2019 yildan kuchga kirgan.

IFRS 16 ijara shartnomalarini moliyaviy hisobda aks ettirish tartibini belgilaydi.

Ya’ni, agar korxona:

- bino,
- uskuna,
- transport vositasi kabi aktivlarni ijaraga olsa — bu standart qo‘llaniladi.

Xalqaro amaliyotda adolatli qiymat tushunchasi IFRS 13 standarti orqali tartibga solinadi. Unga ko‘ra, adolatli qiymat – bu bozor ishtirokchilari o‘rtasida odatiy shartlarda amalga oshiriladigan operatsiyada aktivni sotish yoki majburiyatni o‘tkazishda shakllanadigan narxdir. Bu yondashuv aktivlarning bozor konyunkturasiga mos ravishda baholanishini ta’minlaydi.

Amaliyot tahlili shuni ko‘rsatadiki, qayta baholash jarayonida quyidagi muammolar mavjud:

– bozor ma’lumotlarining cheklanganligi;

– baholovchilar xulosalarining yagona metodologik asosga ega emasligi;

– qayta baholash intervallarining iqtisodiy omillarga bog‘lanmaganligi;

– amortizatsiyani qayta hisoblashda uslubiy noaniqliklar.

Qayta baholash natijasida korxona balans tuzilmasi o‘zgaradi, aktivlar qiymati real iqtisodiy sharoitga yaqinlashadi, kapital tarkibida qo‘shimcha zaxira shakllanadi. Bu esa moliyaviy barqarorlik, aktivlar rentabelligi va investitsion jozibadorlik ko‘rsatkichlariga ta’sir ko‘rsatadi.

1-jadval. IAS 16 va IFRS 13 asosida qayta baholash modeli mazmuni[64]

Ko‘rsatkich	IAS 16 talabi	IFRS 13 talabi	Moliyaviy hisobotga ta’siri
Baholash asosi	Qiymat yoki qayta baholash modeli	Adolatli qiymatni aniqlash metodologiyasi	Aktivlar real bozor qiymatida aks etadi
Qayta baholash davriyligi	Muntazam ravishda	Bozor ma’lumotlariga asoslanadi	Balansdagi qiymat o‘zgarishi
Qiymat oshishi	Qayta baholash zaxirasida aks ettiriladi	1-,2-,3-darajali iyerarxiya	Kapital oshadi
Qiymat kamayishi	Zarar sifatida tan olinadi	Bozor konyunkturasiga bog‘liq	Foyda kamayadi
Amortizatsiya	Qayta hisoblanadi	Adolatli qiymatdan kelib chiqadi	Rentabellik ko‘rsatkichlariga ta’sir

Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar ilgari surildi:

64

– qayta baholash intervallarini inflyatsiya indeksi va bozor dinamikasiga bog‘lash;

– adolatli qiymatni aniqlashda xalqaro baholash standartlari talablarini joriy etish;

– hisob siyosatida qayta baholash tartibi, usullari va qayta baholash natijalarini hisobga olish mexanizmlarini aniq belgilash;

– moliyaviy tahlil ko‘rsatkichlari bilan qayta baholash natijalarini integratsiya qilish;

– raqamli baholash platformalaridan foydalanish orqali shaffoflikni ta’minlash.

Xulosa qilib aytganda, asosiy vositalarni qayta baholash amaliyotini xalqaro standartlar asosida takomillashtirish korxonalar moliyaviy hisobotining ishonchliligini oshiradi, investitsion muhitni yaxshilaydi va korporativ boshqaruv samaradorligini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. IAS 16 – Property, Plant and Equipment. IFRS Foundation.
2. IFRS 13 – Fair Value Measurement. IFRS Foundation.
3. IFRS Foundation (2023). International Financial Reporting Standards. London.
4. Epstein, B., & Jermakowicz, E. (2020). *Wiley Interpretation and Application of IFRS Standards*.
5. Nobes, C., & Parker, R. (2018). *Comparative International Accounting*. Pearson.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston — 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi PF–158-sonli farmoni, 2023-yil 11-sentyabr.
7. Qurbonov A.M. (2021). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida asosiy vositalar hisobini takomillashtirish. – Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
8. Yuldashev N.Q. (2022). Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari: nazariya va amaliyot. – Toshkent: Innovatsiya nashriyoti.
9. Norqobilov B.X. (2023). IFRS sharoitida korxonalar moliyaviy hisobotini shakllantirish. – Toshkent: Iqtisodiyot DUNYOSI.

KORXONALARDA INVENTARIZATSIYANI TASHKIL ETISH VA O‘TKAZISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Maxmanov Xondamir Doniyor o‘g‘li
TDIU 4-kurs talabasi
xondamirmaxmanov@icloud.com

Annotatsiya: ushbu ilmiy maqolamda har bir davlat va xususiy tashkilotlarda inventarizatsiya turlarini va ularni qay tariqa o‘tkazishni o‘rganilgan va shu bilan birga nafaqat O‘zbekistonda balki Yevropa mamlakatlari bilan ham qismam taqqoslab, to‘liq ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: BXMS, Kompaniya, AKT, IFRS, PERPETUAL, inventarizatsiya, raqamlashtirish.

Avvalambor inventarizatsiya boyicha qisqarroq tushuncha berib o‘tsam. Inventarizatsiya bu haqiqatdagi bor aktiv bilan hujjatdagi aktivni solishtirishdir. Inventarizatsiya asosan ikki xil bo‘ladi.

Yuqorida ko‘rinib turibdiki inventarizatsiyani ikki hil turini 1-rasmda keltirilganini izohlab o‘tamiz.

1. **Rejali inventarizatsiya bu-** Korxona xisob siyosatida belgilangan vaqtda o‘tkaziladi.

2. **Rejadan tashqari inventarizatsiya bu-** Favqulotda xolat vaqtida yoki masul shaxs o‘zgarganida o‘tkaziladi.



1-rasm. Inventarizatsiyaning asosiy turlari

Inventarizatsiya o‘tkazilganligini dalolatnoma yani AKT (Solishtirma dalolatnoma) xujatida tasdiqlab qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan **19.10.1999yilda 19-sonli BXMS yani** (Buxgalteriya Xisobi Milliy Standartlari) tasdiqlangan.

Inventarizatsiya o‘tkazish muddatlari bizda mavjud. Bular:Tovar-moddiy zaxiralar bir yilda kamida bir marta inventarizatsiyadan o‘tkaziladi. Asosiy vositalar ikki yilda kamida bir marta, kutubxona fondlari esa besh yilda bir marta inventarizatsiyadan o‘tkaziladi. Pul mablag‘lari, pul hujjatlari, qiymatliklari va qat’iy hisobdagi blanklari oyda bir marta, yonilg‘i-moylash materiallari va oziq-ovqat mahsulotlari har chorakda, qimmatbaho metallar qonunchilik hujjatlarida belgilangan muddatlarda inventarizatsiyadan o‘tkaziladi.

Ishlab chiqarish zaxiralari quyidagi hollarda inventarizatsiyadan o‘tkaziladi: Asosiy vositalar va tovar-moddiy zaxiralar qayta baholanganda; moddiy javobgar shaxslar almashganda (ishlarni qabul qilish — topshirish kunida); o‘g‘irlik yoki suiiste’mol qilish, shuningdek qiymatliklarni buzilishi faktlari aniqlanganda; tabiiy ofatlar, yong‘inlar, falokatlar yoki g‘ayritabiiy sharoitlar yuzaga keltirgan va boshqa favqulodda vaziyatlar yuz berganda; tashkilot tugatilganda (qayta tashkil etilganda) tugatish (ajratish) balansini tuzish oldidan va qonunchilik hujjatlarda nazarda tutilgan boshqa hollarda. Umumiy (jamoaviy) moddiy javobgarlik sharoitida jamoa rahbari o‘zgarganda, jamoadan uning ellik foizdan ortiq a’zolari chiqib ketganda, shuningdek jamoaning bitta yoki bir nechta a’zolari talabi bilan inventarizatsiya o‘tkaziladi.

Inventarizatsiyani o‘tkazishni Korzinka va Havas kompaniyalar (kompaniya manosi bu- tijorat faoliyati bilan shug`ullanuvchi biznes subyekt hisoblanadi) misolida ko‘radigon bo‘lsak. Bu kompaniyalarda bir yilda ikki marotaba inventarizatsiya o‘tkaziladi. Inventarizatsiya o‘tkazilgach kamomad aniqlanadi va unga quyidagicha provotka beriladi.

Kamomadni aniqlash.

DT	5910	KT
20 000 000		

DT	2910	KT
		20 000 000

Kamomadni korxona xarajatiga olish.

DT	9430	KT
20 000 000		

DT	5910	KT
		20 000 000

Kamomadni xodim bo‘yniga qo‘yish.

DT	4730	KT
20 000 000		

DT	5910	KT
	20 000 000	

Kamomadni xodim oyligidan ushlash.

DT	6710	KT
20 000 000		

DT	4730	KT
	20 000 000	

5910- Kamomadlar va qiymatliklarnining buzulishidan yo‘qotishlar

2910- Ombordagi tovarlar

9430- Boshqa operatsion xarajatlar

4730- Moddiy zararni qoplash bo‘yicha xodimlarning qarzi

6710- Mexnat xaqi bo‘yicha xodim bilan xisoblashishlar

Yevropa mamlakatlarida esa inventarizatsiya odatda xalqaro standartlar asosida tashkil etiladi. Asosan International Financial Reporting Standards Foundation (IFRS) yoki Yevropa Ittifoqi talablari qo‘llaniladi.

Yevropa mamlalatlarida inventarizatsiya 4ta bosqichdan iborat bo‘ladi. Buni quydagi rasmda ham ko‘rishimiz mumkin.

1-rasm. Yevropa mamlalatlarida inventarizatsiya 4ta bosqichi



Yillik majburiy inventarizatsiya bu - Moliyaviy yil oxirida barcha aktiv va majburiyatlar tekshiriladi. Ombor, asosiy vositalar, pul mablag‘lari, qarzdorliklar tasdiqlanadi.

Perpetual inventarizatsiya bu - Kompyuter tizimi orqali har kuni qoldiq nazorat qilinadi.Barkod, skaner, ERP (bu korxonaning barcha ish jarayonlarini bitta umumiy dastur orqali boshqarish tizimidir) tizimlari qo‘llaniladi.

Mustaqil auditor nazorati bu - Yirik kompaniyalarda tashqi auditor tekshiradi. Hisobot shaffofligi juda muhim xisoblanadi.

Inventarizatsiya dalolatnomasi bu - Natijalar rasmiy hujjatlashtiriladi. Ortiqcha yoki kamomad moliyaviy hisobotda aks ettiriladi.

Asosiy farqlariga keladigan bo‘lsak

Raqamlashtirish darajasi va xalqaro standartlar qo‘llanilishi. Tizim mazmuni o‘xshash (sanash, taqqoslash, dalolatnoma), lekin Yevropada jarayon ko‘proq avtomatlashtirilgan va shaffof bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. International Financial Reporting Standards Foundation. International Financial Reporting Standards (IFRS) — Aktivlar va zaxiralarni hisobga olish talablari.
2. European Commission. Directive 2013/34/EU (Accounting Directive). — Yevropa Ittifoqida moliyaviy hisobot talablari.
3. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS). — Inventarizatsiya o‘tkazish tartibi.
4. O‘zbekiston Respublikasi “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi Qonuni.
5. Accounting Principles — Weygandt, Kimmel, Kieso. Moliyaviy hisob asoslari va inventarizatsiya nazariyasi.
6. International Federation of Accountants (IFAC).
7. https://lex.uz/acts/-7058433

O‘ZBEKISTON MINTAQALARIDA INVESTITSIYA RESURSLARINI SAMARALI TAQSIMLASH VA HUDUDIY NOMUTANOSIBLIKNI KAMAYTIRISHNING INSTITUTSIONAL ASOSLARI

Xaydarova Nargiza Anvarovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti
ORCiD: 0000-0001-5641-4454

Annotatsiya: So‘nggi yillarda mamlakatda investitsiya faolligi sezilarli darajada oshgan bo‘lsa-da, investitsiya oqimlarining hududlar kesimida notekis taqsimlanishi ayrim mintaqalarda iqtisodiy rivojlanish sur’atlarining pastligini keltirib chiqarmoqda. Tadqiqot doirasida investitsiya resurslarining hududiy tarkibi,

tarmoqlar bo‘yicha taqsimoti va investitsiya jozibadorligiga ta’sir etuvchi omillar o‘rganildi. Tahlil natijalari asosida investitsiya resurslarini hududlar kesimida diversifikatsiya qilish, iqtisodiy rag‘batlantirish instrumentlarini takomillashtirish va institutsional islohotlarni chuqurlashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: investitsiya resurslari, hududiy iqtisodiy rivojlanish, hududiy nomutanosiblik, institutsional mexanizmlar, investitsiya jozibadorligi, iqtisodiy diversifikatsiya, investitsiya siyosati, mahalliy boshqaruv.

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi va iqtisodiyotning raqamlashuvi chakana savdoda boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va prognozlash bo‘yicha yangi imkoniyatlardan foydalanishni taqozo etmoqda. O‘zbekistonda chakana savdoning zamonaviy rivojlanish tendensiyalariga savdoning zamonaviy formatlari ulushining oshishi, omnikanal savdoni rivojlantirish, boshqaruv jarayonlari va mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarda raqamli texnologiyalarni joriy etish kiradi.

INFOLine tadqiqot ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda O‘zbekistonda umumiy chakana tovar aylanmasi o‘tgan yilga nisbatan 9,9 foizga oshgan bo‘lib, bu Qozog‘iston, Belarus va Rossiya kabi qo‘shni mamlakatlardagi shunga o‘xshash ko‘rsatkichlardan yuqori hisoblanadi [1].

Ijobiy dinamikaga qaramay, O‘zbekistonda zamonaviy chakana savdo ulushi hanuzgacha 20 foizdan kam bo‘lib qolmoqda, bu esa o‘sish uchun katta salohiyat mavjudligini va biznes samaradorligini oshirish maqsadida tahliliy vositalar hamda boshqaruv hisobot tizimlarini takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi [1].

Yig‘ilgan ma’lumotlarni tahlil qilishda quyidagi usullar qo‘llanildi:

4. Statistik tahlil — chakana savdo sohasining rivojlanish dinamikasini baholash maqsadida o‘sish sur’atlari va boshqa statistik ko‘rsatkichlar hisoblab chiqildi.

5. Grafik tahlil — chakana savdo sohasining dinamikasi va tuzilmasini yaqqol aks ettirish uchun ma’lumotlar vizuallashtirildi.

6. Kontent-tahlil — tahliliy vositalar va boshqaruv hisoboti sohasidagi asosiy tendensiyalar hamda muammolarni aniqlash maqsadida ilmiy nashrlar va hisobotlar mazmuni o‘rganildi.

O‘zbekistonda chakana savdo sohasining rivojlanish dinamikasini ko‘rib chiqamiz. Statistik ma’lumotlar tahlili 2015–2024-yillar davrida O‘zbekistonda chakana savdo ko‘rsatkichlarining barqaror o‘sishini ko‘rsatadi. 1-rasmda ko‘rinib turibdiki, O‘zbekistonda korxonalarning umumiy tushumi 2015 yildagi 56 508,5

mln so‘mdan 2024 yilda 1 533 599,1 mln so‘mgacha oshgan bo‘lib, mazkur davr mobaynida o‘sish sur’ati 27 barobardan ortiqni tashkil etgan.



1-rasm. O‘zbekistonda korxonalar tushumining dinamikasi (2015–2024 yillar)[65]

Shu bilan birga, chakana savdo korxonalarining tushumi ham ushbu davrda 24 275,5 mln so‘mdan 474 990,6 mln so‘mgacha o‘sgan bo‘lib, bu qariyb 20 barobarlik o‘sishni anglatadi.

Shuni ta’kidlash joizki, vaqt o‘tishi bilan chakana savdo korxonalari tushumining korxonalar umumiy tushumidagi ulushi kamayib borgan (2-rasm). Agar 2015 yilda ushbu ulush 42,96 foizni tashkil etgan bo‘lsa, 2024 yilga kelib u 30,97 foizgacha pasaygan. Bu holat O‘zbekiston iqtisodiyotining boshqa tarmoqlari chakana savdoga nisbatan yuqoriroq sur’atlarda rivojlanganini ko‘rsatadi.

Zamonaviy analitika va boshqaruv hisobotining holati. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, O‘zbekiston chakana savdo sohasida an’anaviy tahlil va hisobot usullaridan zamonaviy raqamli yechimlarga bosqichma-bosqich o‘tish jarayoni kuzatilmoqda. Hozirgi vaqtda sohada quyidagi tahliliy vositalar va boshqaruv hisobot tizimlaridan foydalanilmoqda:

Biznes-analitika tizimlari (BI tizimlari) — Statista ma’lumotlariga ko‘ra, 2025 yilda O‘zbekistonda BI tizimlari bozori hajmi 26,48 million AQSH dollariga baholangan [2]. Yirik chakana savdo tarmoqlari sotuvlarni tahlil qilish, assortimentni boshqarish va zaxiralarni optimallashtirish maqsadida biznes-analitika tizimlarini faol joriy etmoqda.

[65] O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

1-Jadval. O‘zbekiston chakana savdo sohasida qo‘llanilayotgan zamonaviy raqamli tahlil va boshqaruv tizimlari[66]

№	Tizim turi	Tavsifi
1.	Biznes-analitika tizimlari (BI tizimlari)	Statista ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yilda O‘zbekistonda BI tizimlari bozori hajmi 26,48 million AQSH dollariga baholangan [2]. Yirik chakana savdo tarmoqlari sotuvlarni tahlil qilish, assortimentni boshqarish va zaxiralarni optimallashtirish maqsadida ushbu tizimlarni faol joriy etmoqda.
2.	CRM tizimlari (Customer Relationship Management)	O‘zbekistonda mijozlar bilan o‘zaro munosabatlarni boshqarish tizimlari bozori o‘sishda davom etmoqda. 2025 yilda uning hajmi 83,63 million AQSH dollariga baholangan. CRM tizimlari chakana savdo korxonalariga mijozlar haqidagi ma’lumotlarni yig‘ish, ularning afzalliklari va xulq-atvorini tahlil qilish imkonini beradi.
3.	Chakana savdoni boshqarish tizimlari (RMS)	O‘zbekistonda chakana do‘konlarni boshqarishni avtomatlashtirish uchun turli yechimlar mavjud bo‘lib, ular tovar hisobini yuritish, zaxiralarni boshqarish, sotuvlarni tahlil qilish va hisobotlarni shakllantirish funksiyalarini qamrab oladi
4.	Chakana savdo analitikasi uchun AI tizimlari	Mamlakatda oflayn do‘konlarda xaridorlar xulq-atvorini tahlil qilish uchun sun’iy intellekt asosidagi innovatsion yechimlar joriy etilmoqda. Masalan, **TASS Vision** kompaniyasi 1000 dan ortiq savdo nuqtalari bilan hamkorlik qilib, oflayn riteylerlar uchun tahliliy vositalarni taklif etmoqda.

Zamonaviy tahliliy vositalarni muvaffaqiyatli joriy etishning yaxshi namunasi sifatida O‘zbekiston farmatsevtika bozorini keltirish mumkin. Jumladan, Proxima Research kompaniyasi Sell Out mahsulotini taqdim etib, bozorda birinchi bo‘lib dorixonalardagi real sotuv ma’lumotlariga asoslangan analitik xizmatlarni yo‘lga qo‘ydi [3]. Bu bozor ishtirokchilariga shunchaki baholarni emas, balki iste’mol talabining haqiqiy manzarasini olish imkoniyatini berdi.

Bundan tashqari, kompaniya Power BI platformasida hisobotlarni yangilab, ularni interaktiv va ko‘rgazmali shaklga keltirdi. Endilikda foydalanuvchilar chakana savdo ko‘rsatkichlarini oson tahlil qilish, hududlar kesimida ma’lumotlarni taqqoslash va yanada aniq boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘ldilar.

Chakana savdoning raqamli transformatsiyasi. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya jarayoni taxminan o‘n yil avval, ya’ni 2012-yilda Kompleks rivojlantirish dasturi tasdiqlanganidan so‘ng shakllana boshladi [4]. Shundan buyon mamlakat raqamli iqtisodiyot sari izchil qadamlar qo‘yib, zamonaviy texnologiyalarni faol joriy etmoqda hamda ularni keng joriy etish uchun qulay sharoitlar yaratmoqda.

Shunday qilib, O‘zbekiston bugungi kunda savdo sohasini raqamlashtirishda barqaror yutuqlarga erishmoqda, biroq to‘liq raqamli transformatsiyani amalga

[66] Muallif tomonidan statistik ma’lumotlar asosida tuzilgan

.

oshirish uchun biznes darajasida ham, davlat qo‘llab-quvvatlashi darajasida ham mavjud cheklovlarni tizimli ravishda bartaraf etish zarur.

Analitikadan foydalanishni kengaytirishdagi muhim to‘siqlardan biri malakali mutaxassislar yetishmasligi bo‘lib qolmoqda. Shu sababli biznes-analitika, raqamli texnologiyalar va ma’lumotlar bilan ishlash sohasida kadrlar tayyorlash masalasi ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Ta’lim va kasbiy tayyorgarlikka tizimli investitsiyalar kiritilmas ekan, ushbu tanqislikni bartaraf etish qiyin bo‘ladi [5].

Qiziqarli fakt shundan iboratki, chakana savdo korxonalari tushumi absolyut ko‘rsatkichlarda o‘sishda davom etayotgan bo‘lsa-da, ularning biznes umumiy tushumidagi ulushi bosqichma-bosqich kamayib bormoqda. Bu mamlakat iqtisodiyoti tobora diversifikatsiyalanib borayotganini, ya’ni sanoat, xizmatlar sohasi va IT sektori faol rivojlanayotganini ko‘rsatishi mumkin. Biroq bu holat chakana savdoning ahamiyatini kamaytirmaydi, chunki u ishlab chiqarish bilan yakuniy iste’molchi o‘rtasidagi eng muhim bog‘lovchi bo‘g‘in bo‘lib qolmoqda.

Qo‘shni mamlakatlar bilan taqqoslash ham O‘zbekistonda zamonaviy chakana savdoni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, INFOLine ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda chakana savdoda tovar aylanmasi o‘sishi 9,9 foizni tashkil etgan bo‘lib, bu Qozog‘iston, Belarus va Rossiya ko‘rsatkichlaridan yuqori hisoblanadi [1].

Shu bilan birga, savdo nuqtalari zichligi bo‘yicha, ayniqsa Toshkent kabi yirik shaharlarda, O‘zbekiston hanuzgacha ortda qolmoqda. Masalan, poytaxtda taxminan 17 mingta do‘kon mavjud bo‘lsa-da, aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan savdo nuqtalari soni qo‘shni Qozog‘iston megapolislariga nisbatan past hisoblanadi [1].

Asosiy to‘siqlar qatoriga mutaxassislar yetishmasligi, kichik biznesda texnologik bazaning zaifligi hamda logistika infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmaganligi kiradi. Ularni bartaraf etish davlat qo‘llab-quvvatlashi (masalan, dasturiy ta’minot va bulutli yechimlarni subsidiyalash), biznes-analitika bo‘yicha ta’lim dasturlarini rivojlantirish, shuningdek logistika va raqamli platformalarga investitsiya kiritish kabi muvofiqlashtirilgan chora-tadbirlarni talab qiladi.

Shunday qilib, O‘zbekistonda chakana savdoda boshqaruv hisobotining kelajagi davlat, biznes va ta’lim muassasalarining sa’y-harakatlarini birlashtirish qobiliyatiga bevosita bog‘liq. Shu bilan birga, raqamlashtirish faqatgina trend emas, balki uzoq muddatli istiqbolda chakana savdo samaradorligi, shaffofligi va barqarorligini oshirishning amaliy vositasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

10. “Ko‘z yoshlar orqali o‘sish: O‘zbekistonda chakana savdo rivojlanishiga nima to‘sqinlik qilmoqda” [Elektron manba] // Logistan.info. —

2025.—Kirish rejimi: https://logistan.info/6549-rost-skvoz-slezy-chto-meshaet-razvitiyu-roznichnoj-torgovli-v-uzbekistane/

11. Business Intelligence dasturiy ta’minoti — O‘zbekiston [Elektron manba] // Statista. — 2025. — Kirish rejimi: https://www.statista.com/outlook/tmo/software/enterprise-software/business-intelligence-software/uzbekistan

12. 2024-yil birinchi choragida O‘zbekiston chakana savdo bozoridagi asosiy tendensiyalar [Elektron manba] // Proxima Research. — 2024. — Kirish rejimi: https://proximaresearch.com/uz/en/news/audit-uz-1q-2024/

13. O‘zbekistonda raqamli transformatsiya [Elektron manba] // Global CIO. — 2023. — Kirish rejimi: https://globalcio.com/articles/main/digital-transformation-of-uzbekistan/

14. O‘zbekistonda xususiy sektor raqobatbardoshligi uchun raqamli ko‘nikmalar [Elektron manba] // OECD. — 2023. — Kirish rejimi: https://www.oecd.org/content/dam/oecd/en/publications/reports/2023/05/digital-skills-for-private-sector-competitiveness-in-uzbekistan_8f1719a7/6c54f447-en.pdf

O‘zbekistonning yashil buxgalteriyani joriy o‘tish strategiyasidagi mavjud muammolar va imkoniyatlar

Xolmurodova Durdona Otamurod qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti doktaranti, xolmurodovad65@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezis iqtisodiy va ekologik islohotlar davrini boshdan kechirayotgan O‘zbekiston sharoitida ushbu tizimning o‘rni, mavjud to‘siqlar va strategik imkoniyatlar tahlil qilinadi.Yashil buxgalteriya bu ekologik xarajatlarni moliyaviy qarorlar qabul qilish jarayoniga integratsiya qiluvchi innovatsion yondashuv bo‘lib, barqaror rivojlanishni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Tabiiy resurslarning kamayishi va ekologik inqirozlar sharoitida yashil hisobot tizimi mamlakatning barqaror o‘sishini ta’minlovchi asosiy omil hisoblanadi. Xalqaro barqarorlik standartlariga moslashish orqali O‘zbekiston o‘zining jahon bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishi va ekologik loyihalarga xorijiy investitsiyalarni jalb etishi mumkin. Tezisda nazariy manbalar va amaliy tadqiqotlar asosida yashil buxgalteriyaning mamlakat iqtisodiyotini transformatsiya qilishdagi salohiyati yoritilgan. Shuningdek, tizimni joriy etishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etish va barqaror iqtisodiy yuksalishga erishish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ilgari surilgan

Kalit so’zlar: Yashil buxgalteriya, EPI – Ekologik samaradorlik indeksi, ESG – Atrof-muhit, ijtimoiy va boshqaruv ko‘rsatkichlari, Ekologik xarajatlar,IRFS S1 va S2 barqarorlik hisobotlari standartlari

Abstract: This article analyzes the role, existing barriers, and strategic opportunities of green accounting in the context of Uzbekistan, a country undergoing significant economic and ecological reforms. Green accounting is an innovative approach that integrates environmental costs into financial decision-making processes, playing a pivotal role in ensuring sustainable development.

Amidst resource depletion and environmental crises, a green reporting system serves as a fundamental driver for the nation's sustainable growth. By aligning with international sustainability standards, Uzbekistan can enhance its global competitiveness and attract foreign investment for eco-friendly projects. Based on theoretical sources and empirical research, the study highlights the potential of green accounting to transform the national economy. Furthermore, practical recommendations are proposed to overcome implementation challenges and achieve sustainable economic advancement.
Keywords: Green accounting, EPI – Environmental Performance Index, ESG – Environmental, Social, and Governance, Environmental costs, IFRS S1 and S2 Sustainability Disclosure Standards.
Аннотация: В данной работе анализируются роль, существующие барьеры и стратегические возможности внедрения системы «зеленого» учета в условиях Узбекистана, переживающего период активных экономических и экологических реформ. «Зеленый» учет представляет собой инновационный подход, интегрирующий экологические издержки в процесс принятия финансовых решений, что имеет решающее значение для обеспечения устойчивого развития. В условиях истощения природных ресурсов и экологических кризисов система зеленой отчетности становится ключевым фактором, обеспечивающим устойчивый рост страны. Адаптация к международным стандартам устойчивости позволит Узбекистану повысить свою конкурентоспособность на мировом рынке и привлечь иностранные инвестиции в экологические проекты. На основе теоретических источников и практических исследований в тезисах освещается потенциал «зеленого» учета в трансформации экономики страны. Также выдвинуты практические рекомендации по преодолению трудностей внедрения системы и достижению устойчивого экономического подъема.
Ключевые слова: Зеленый учет, EPI – Индекс экологической эффективности, ESG – Экологическое, социальное и корпоративное управление, Экологические затраты, Стандарты отчетности в области устойчивого развития IFRS S1 и S2.

KIRISH

Ekologik xarajatlarni an'anaviy moliyaviy hisob tizimiga integratsiya qiluvchi yashil buxgalteriya bugungi kunda barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishning poydevori hisoblanadi. Tabiiy boyliklarga egaligi bilan bir qatorda jiddiy ekologik muammolar qarshisida turgan O‘zbekiston uchun ushbu tizimni tatbiq etish ham strategik imkoniyatlarni, ham muayyan to‘siqlarni keltirib chiqaradi. Iqtisodiy modellarni atrof-muhit barqarorligi prizmasi orqali qayta ko‘rib chiqish global talabga aylanib borayotgan bir davrda, yashil buxgalteriya innovatsion yechim sifatida alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu uslub an'anaviy hisob tizimini kengaytirib, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning tabiatga bo‘lgan ta'sirini moliya tilida ifodalaydi. Mazkur yondashuv tabiiy resurslarning cheklanganligini va ekologik tanazzulning iqtisodiy xavflarini tan olib, mamlakat iqtisodiyotining "salomatligi" haqida yanada aniq va shaffof ma'lumot berishni maqsad qilgan. Markaziy Osiyoning eng yirik aholisiga ega va jadal rivojlanayotgan davlati sifatida O‘zbekiston so‘nggi o‘n yillikda yuqori iqtisodiy o‘sish sur'atlarini namoyish etdi. Biroq, ushbu o‘sish suv tanqisligi, tuproq degradatsiyasi va havo ifloslanishi kabi oqibatlarni ham keltirib chiqardi. Mazkur muammolar nafaqat ekologik xarakterga ega, balki qishloq xo‘jaligi, sanoat va sog‘liqni saqlash kabi hayotiy sohalarga bevosita iqtisodiy zarar yetkazmoqda.

Prezidentning buxgalteriya hisobini takomillashtirish va MHXSga (IFRS) o‘tish bo‘yicha belgilangan strategik vazifalari doirasida **"yashil buxgalteriya"** amaliyotini joriy etish alohida ustuvorlik kasb etdi. Shu munosabat bilan, ushbu tizimni tashkil etish va uning istiqbollarini ilmiy tahlil qilish bugungi kunning kechiktirib bo‘lmas dolzarb vazifasiga aylandi. Zero, ekologik xarajatlarni inobatga oluvchi iqtisodiy tizimga o‘tish O‘zbekistonning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini kafolatlovchi yagona yo‘ldir.

ASOSIY QISM

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, bugungi kunda O‘zbekiston yashil buxgalteriya tamoyillarini o‘zlashtirishning dastlabki bosqichida turibdi. Amaldagi hisob tizimi asosan an'anaviy moliyaviy hisobotlarga yo‘naltirilgan bo‘lib, unda ekologik xarajatlar yoki barqaror rivojlanish amaliyoti deyarli aks etmaydi. Garchi mamlakatda "2019–2030-yillarda O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi" kabi muhim huquqiy hujjatlar qabul qilingan bo‘lsa-da, yashil buxgalteriya qoidalari hali milliy buxgalteriya standartlariga (MHBS) to‘liq singdirilmagan.

O‘tish davridagi asosiy to‘siqlar:

- **Institutsional bo‘shliqlar**: Yashil buxgalteriya uchun maxsus tartibga soluvchi baza va standartlarning yetishmasligi asosiy muammodir. Biznes subyektlari uchun ekologik foyda va zararlarni hisobga olish bo‘yicha aniq uslubiy qo‘llanmalarning yo‘qligi ushbu tizimning keng yoyilishiga to‘sqinlik qilmoqda.
- **Professional ko‘nikmalar tanqisligi**: Soha mutaxassislarining aksariyati ekologik iqtisodiyot yoki yashil hisob metodologiyasi bo‘yicha yetarli bilimga ega emas. Bu esa korxonalarning barqaror hisobot tizimiga o‘tish imkoniyatlarini cheklaydi.
- **Ma'lumotlar shaffofligi va mavjudligi**: Ko‘plab tarmoqlarda chiqindilar, resurs iste'moli va emissiyalar bo‘yicha tizimli ma'lumotlar yig‘ilmaydi. Ishonchli statistik baza bo‘lmasa, ekologik omillarni moliyaviy hisobga kiritish murakkab vazifa bo‘lib qolaveradi.
- **Iqtisodiy ustuvorliklar**: O‘zbekiston iqtisodiyoti hamon qishloq xo‘jaligi va tog‘-kon sanoati kabi resurs talab qiluvchi sohalarga tayanadi. Qisqa muddatli iqtisodiy foyda ko‘zlangani sababli, yashil tashabbuslar ko‘pincha qimmat yoki iqtisodiy o‘sishga xalaqit beruvchi omil sifatida qabul qilinmoqda.

Shu bilan birga rivojlanish uchun istiqbolli bir qancha imkoniyatlar ham mavjud.

Davlatning siyosiy irodasi: "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi doirasida ekologik masalalarni iqtisodiy qarorlar qabul qilish jarayoniga kiritishga bo‘lgan intilish islohotlar uchun qulay muhit yaratmoqda. Xalqaro hamkorlik: Jahon banki, BMTTD (UNDP) va Global yashil o‘sish instituti (GGGI) bilan hamkorlik O‘zbekistonga moliyaviy resurslar, texnik ekspertiza va xalqaro ilg‘or tajribalarni o‘zlashtirish imkonini beradi. Texnologik taraqqiyot: Raqamli buxgalteriya va ekologik ma'lumotlarni kuzatish tizimlarining rivojlanishi ma'lumot yig‘ishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradi. Bu texnologiyalar korxonalarga ekologik ko‘rsatkichlarni moliyaviy hisobotlarga aniqroq kiritish imkonini beradi.Barqarorlikka o‘sib borayotgan qiziqish: Qayta tiklanuvchi energiya va ekoturizm sohalaridagi ayrim kompaniyalar allaqachon barqarorlik tamoyillarini joriy qila boshladi. Masalan, ayrim quyosh energiyasi loyihalarida karbonat angidrid tejamkorligi bo‘yicha hisobotlar yuritilmoqda, qishloq xo‘jaligida esa suvni tejashning iqtisodiy qiymati baholanmoqda**.**



1-jadval.O’zbekistonda yashil buxgalteriyani jorish erish bosqichlari

Yuqorida qayd etilgan bosqichlarni izchil amalga oshirish O‘zbekistonda yashil buxgalteriyani joriy etish orqali ekologik barqarorlik va barqaror iqtisodiy yuksalishni ta'minlaydi. IFRS S1 (Barqarorlikka oid moliyaviy ma'lumotlarni ochib berishning umumiy talablari) standarti barqarorlik hisobotlari uchun global poydevor yaratib, ma'lumotlarning muhimligi va qiyoslanuvchanligiga urg‘u beradi. O‘zbekiston ushbu standartlarni o‘zlashtirish orqali ekologik va ijtimoiy xavflarni moliyaviy hisobotlarga tizimli ravishda integratsiya qilishi, bu esa o‘z navbatida investorlar va manfaatdor tomonlar uchun shaffoflikni oshirishi mumkin.IFRS S2 (Iqlim bilan bog‘liq ma'lumotlarni ochib berish) standarti esa kompaniyalardan iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq risklarni, jumladan, boshqaruv strategiyasi va iqlimiy ta'sir ko‘rsatkichlarini oshkor qilishni talab etadi. Ushbu talablarning milliy hisob tizimiga tatbiq etilishi, ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va energetika kabi iqlim o‘zgarishiga ta'sirchan sohalarda mamlakatning barqarorlik borasidagi sa'y-harakatlarini global mezonlar bilan uyg‘unlashtiradi. Bu korxonalarning resurslardan foydalanish, ifloslanish darajasi va bioxilma-xillikka ta'siri bo‘yicha hisobdorligini oshiradi.

Iqlim xatarlari O‘zbekistonning "Yashil iqtisodiyot" strategiyasida ham markaziy o‘rin tutadi. Strategiya doirasida 2030-yilga qadar karbonat angidrid chiqindilarini kamaytirish va qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25 foizga yetkazish maqsad qilingan. IFRS S2 standartining qo‘llanilishi korxonalarga iqlim o‘zgarishining moliyaviy oqibatlarini aniq aks ettirish imkonini beradi va biznes amaliyotlarini milliy iqlimiy maqsadlar bilan moslashtiradi.

XULOSA

O‘zbekistonning yashil buxgalteriyaga o‘tishi — jadal iqtisodiy o‘sish sharoitida yuzaga kelayotgan ekologik muammolarni bartaraf etish va barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishish yo‘lidagi hal qiluvchi qadamdir. Garchi ekologik xarajatlarni milliy hisob tizimiga to‘liq integratsiya qilish jarayoni hali boshlang‘ich bosqichda bo‘lsa-da, bu borada rivojlanish uchun aniq imkoniyatlar mavjud.2030-yillarga mo‘ljallangan "Yashil iqtisodiyot" strategiyasi ushbu transformatsiya uchun mustahkam siyosiy zamin yaratadi. Shunga qaramay, institutsional bo‘shliqlar, mutaxassislar yetishmasligi va ma'lumotlar bazasining cheklanganligi kabi to‘siqlar hamon saqlanib qolmoqda. Kuchli tartibga soluvchi mexanizmlar va ekologik ma'lumotlarni to‘plashning mukammal tizimisiz moliyaviy va ekologik hisobni birlashtirish qiyin kechadi. Shuningdek, resurs talab qiluvchi tarmoqlarga bo‘lgan hozirgi e'tibor qisqa muddatli foyda va uzoq muddatli ekologik barqarorlik o‘rtasida ziddiyat keltirib chiqarishi mumkin. Ushbu standartlarning joriy etilishi investorlar ishonchini mustahkamlashga, xorijiy kapital oqimini ko‘paytirishga

hamda iqlim o‘zgarishiga ta’sirchan bo‘lgan qishloq xo‘jaligi va energetika kabi strategik tarmoqlarda ekologik xatarlarni samarali boshqarishga xizmat qiladi. Xulosa qilib aytganda, O‘zbekistonning yashil buxgalteriyaga o‘tish jarayonida muayyan qiyinchiliklar mavjud bo‘lsa-da, davlatning qat’iy siyosiy irodasi, xalqaro hamkorlik va zamonaviy texnologiyalarning integratsiyasi ushbu to‘siqlarni bartaraf etish uchun mustahkam zamin yaratadi. Atrof-muhit omillarini hisob tizimiga kiritish orqali O‘zbekiston nafaqat barqaror rivojlanish maqsadlariga erishadi, balki kelajakda yanada bardoshli va diversifikatsiyalangan iqtisodiy modelni shakllantirishga muvaffaq bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

5. Adams, C. A., & Simnett, R. (2011). Developing the sustainability assurance market. Accounting,

6. Burritt, R. L., & Schaltegger, S. (2012). Sustainability accounting and reporting. Springer Science & Business Media.

7. Cohen, S., & Simnett, R. (2000). The role of corporate social responsibility in accounting and
business ethics. Journal of Business Ethics, 23(2), 129–142.

8. Gray, R. (2010). Is accounting for sustainability actually accounting for sustainability...and howwould we know?. Accounting, Organizations and Society, 35(1)

5. Khalilov, Sh.A.(2024) DEVELOPMENT OF A GREEN ACCOUNTING METHODOLOGY IN UZBEKISTAN: LESSONS FROM THE MALAYSIAN EXPERIENCE, International Finance & Accounting, Issue 1, 1-8.

6. Khan, M. H. (2020). Green Accounting and Environmental Policy: Making Economic Development More Sustainable. Economic Analysis and Policy, 65, 198-210.

7. Askarov, A. (2022). Barriers to Implementing Green Accounting in Uzbekistan: Challenges and Solutions. Journal of Environmental Accounting, 15(3), 45-60

8. IFRS Foundation. 2022. IFRS S1: General Requirements for Disclosure of Sustainability-related Financial Information.International Financial Reporting Standards. Accessed October 10, 2024. https://www.ifrs.org.

ХЎЖАЛИК ЮРИТУВЧИ СУБЪЕКТЛАРДА МОЛИЯВИЙ ИНСТРУМЕНТЛАР ҲИСОБИНИ ХАЛҚАРО СТАНДАРТЛАР АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШ ТАРТИБИ

Холпўлотов Рустам Ўктамович

Тошкент давлат иқтисодиёт университети

ТДИУ «Бухгалтерия ҳисоби» кафедраси ассистенти

Аннотация: Мақолада хўжалик юритувчи субъектларда молиявий инструментлар ҳисобини тан олиш уни, бухгалтерияда тан олиш, унинг таркибий қисмлари ҳамда молиявий ҳисоботда акс эттириш тартиби очиб берилган.

Бутун дунё бўйлаб сўнгги йилларда молиявий бозорларда молиявий инструментлар хилма-хиллиги ва мураккаблиги кескин ўсиб бормоқда. Молиявий инструментлар учун бухгалтерия ҳисоби амалиётида муаммо бўлиб ҳисобланади ва шунинг учун халқаро стандартлардан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини тизимида молиявий инструментлар мавзуси энг қийин деб ҳисобланади.

Таянч сўлар: Шартнома, молиявий актив, молиявий мажбурият, улушли восита, қарзли восита, заём, хусусий капитал, имтиёзли акция, опцион, форвард, фьючерс, своп.

Ўзбекистонда молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича кенг кўламлий ишлар амалга оширилмоқда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПҚ-4611-сонли қарорида[1] молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишни жадаллаштириш, хорижий инвесторларни зарур маълумотлар билан таъминлаш ва халқаро молия бозорларига кириш имкониятларини кенгайтириш, ҳисоб ва аудит соҳалари мутахассисларини халқаро стандартлар бўйича тайёрлаш тизимини такомиллаштириш масалаларига яққол мисол бўла олади. Ушбу қарорда бундан ташқари 2021 йил 1 январдан бошлаб молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари асосида бухгалтерия ҳисоби юритилишини ташкил этиши ҳамда молиявий ҳисоботни ихтиёрий равишда халқаро стандартларга мувофиқ тайёрлайдиган тижорат банклари, акциядорлик жамиятлари, суғурта ташкилотлари ва йирик солиқ тўловчилар тоифасига киритилган юридик шахслар тадбиркорлик субъектлари бухгалтерия ҳисобининг миллий стандартлари бўйича молиявий ҳисобот тақдим этишдан озод этилиши белгилаб қўйилган. Бу жараён юртимизда халқаро стандартларга ўтишдаги асосий қадамлардан бири бўлди десак муболаға бўлмиз.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини сифатли қўллаш учун ушбу соҳа

мутахассисларини тайёрлаш бўйича жаҳоннинг муваффақиятли тажрибаларини оммалаштириш, бухгалтерия ҳисоби ва аудит соҳасида қайта тайёрлаш ва малака ошириш бўйича нодавлат таълим ташкилотлари (Сертификатланган дипломли бухгалтерлар халқаро ассотсацияси - ACCA) ва бошқалар билан ўзаро ҳамкорликни кенгайтириш фикрлар кўриб чиқилган. Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларига ўтишни жадаллаштириш мақсадида юртимиздаги ҳар бир молиявий операцияларни амалга оширишда “Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари бўйича молиявий ҳисобот” фанини муваффақиятли топширганлиги тўғрисида ҳужжатга ёҳуд, “Сертификатланган дипломли бухгалтер (ACCA)” ва “Халқаро молиявий ҳисобот бўйича диплом (DipIFR)” сертификатларидан бирига эга бухгалтерлар иштирокини таъминлаш таъкидланган.

Бутун дунё бўйлаб сўнгги йилларда молиявий бозорларда молиявий инструментларнинг хилма-хиллиги ва мураккаблиги кескин ўсиб бормоқда. Молиявий инструментлар учун бухгалтерия ҳисоби амалиётида муаммо бўлиб ҳисобланади ва шунинг учун халқаро стандартлардан кенг фойдаланиш мақсадга мувофиқ.

Молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартларини тизимида молиявий инструментлар мавзуси энг қийин деб ҳисобланади.

1-расм. Молиявий инструментларни ҳисобга олишда қуйидаги халқаро стандартлар

Манба: муаллиф ишланмаси

МҲХС (IAS) 32. Молиявий инструментларни таснифлаш ва уларни молиявий ҳисоботларда тақдим этиш билан боғлиқ[2].

МҲХС (IFRS) 9. Молиявий ҳисоботларда молиявий инструментларни ўлчаш ва тақдим этиш билан боғлиқ[3].

МҲХС (IFRS) 7. Молиявий ҳисоботларда молиявий инструментларнинг ошкор этилиши билан боғлиқ[4].

2-расм. Молиявий инструментларни ҳисобга олишнинг жиҳатлари

Манба: муаллиф ишланмаси

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, молиявий инструментлар тушунчасига қуйидаги таъриф бериш мумкин.

Молиявий инструментлар – бу шартнома бўлиб, бир корхонада молиявий актив иккинчи корхонада эса молиявий мажбурият ёки улушли воситадир.

Шундан келиб чиқиб, молиявий инструментлар таркибий тузилиши қуйидагилардан иборат бўлади (3- расм)



3- расм. Молиявий инструментлар тузилиши

Манба: муаллиф ишланмаси

Молиявий активларга таркибига қайси элементлар киришини қуйидаги 4-расмда кўриш мумкун.



4- расм. Молиявий активларнинг таркиби

Манба: муаллиф ишланмаси

Молиявий мажбуриятларга таркибига қайси элементлар киришини қуйидаги 5-расмда кўриш мумкун.



5-расмда Молиявий мажбуриятларнинг таркиби

Манба: муаллиф ишланмаси

Улушли воситалар- Компаниянинг соф активларидаги улушга нисбатан эгасининг ҳуқуқини тасдиқловчи шартнома масалан оддий акция.

Молиявий инструментларни (масалан, облигациялар ёки сотиб олинадиган имтиёзли акциялар) қуйидаги уч хил молелда ҳисобга олинади.(6-расмда)

6-расм. Молиявий инструментларни ҳисобга олиш моделлари

Манба: муаллиф ишланмаси

Молиявий инструментларни фойда ёки зарар орқали ҳаққоний қиймат бўйича тан олинган. Қуйидаги иккита босқичда ҳисобга олинади:

- Бизнес модели тести. Бу инвестиция қандай мақсадда амалга оширилаётганига қарайди.
- Шартнома бўйича пул маблағлари оқимининг хусусиятларини текшириш. Бу инвестициядан олинадиган пул оқимлари ва уларнинг таркибини кўриб чиқади.

Молиявий инструментларни амортизация қилинган қиймат бўйича ҳисобга олиниши мумкин:

- Бизнес модели тести. Компания инвестицияларни муддатигача ушлаб туриш ниятига эга бўлиши керак.
- Шартнома бўйича пул маблағлари оқимининг хусусиятларини текшириш. Шартнома шартларига кўра, молиявий актив фақат асосий қарз ва унинг қолдиғи бўйича фоизларни тўлашни ифодаловчи пул оқимларини яратиши керак.

Агар қарз воситаси амортизация қилинган қиймат бўйича ҳисобланса, фоиз даромади (мажбуриятлар бўйича самарали ставка бўйича ҳисобланган) фойда ёки зарар тўғрисидаги ҳисоботда тан олинади ва активнинг йил якуни қиймати амортизация қилинган қийматдан фойдаланган ҳолда худди шундай тарзда ҳисобланади.

Молиявий инструментларни бошқа умумлашган даромад орқали ҳаққоний қиймат бўйича ҳисобланиши учун у иккита мақсадни ўз ичига олади:

- Бизнес модели тести. Компания инвестицияларни муддати тугагунга қадар ушлаб туриш ниятида бўлиши керак, лекин агар бошқа, фойдалироқ активни сотиб олиш имконияти пайдо бўлса, активни сотиши мумкин.
- Шартнома бўйича пул маблағлари оқимининг хусусиятларини текшириш.

Шартнома шартларига кўра, молиявий актив амортизация қилинган харажатларни ҳисобга олишда бўлгани каби, фақат асосий қарз ва унинг қолдиғи бўйича фоизларни тўлашни ифодаловчи пул оқимларини яратиши керак.

Молиявий мажбуриятлар дастлаб ҳақоний қийматда тан олинади. Бу, одатда, олинган пулнинг соф суммасидан, мажбуриятни чиқариш учун кетган харажатлари айириб ташлаш билан топилади.

Молиявий мажбуриятларни кейинги баҳолаш

Молиявий мажбуриятлар амортизация қилинган қиймат бўйича ҳисобга олинади.

Амортизация қиймати қуйидагича ҳисобланади:

Номинал қиймати + самарали ставка бўйича ҳисобланган фоизлар - тўланган фоизлар.

Самарали ставка бўйича ҳисобланган фоизлар тўланган фоизлардан фарқ қилади, агар тўлаш учун тўловлар, эмиссия харажатлари ёки чегирмалар каби қўшимча қарз харажатлари мавжуд бўлса. Бундай мажбуриятларга мисол сифатида чуқур чегирмали облигацияни келтириш мумкин.

Молиявий инструментларнинг энг кенг тарқалган турларидан бири бу чуқур чегирмали облигациядир.

- Бундай восита номинал қийматидан катта чегирма билан чиқарилади.
- Одатда купон ставкаси бозор курсидан анча паст бўлади
- Қарзларнинг умумий қийматига қуйидагилар киради:

  - эмиссион харажатлари;

  - чиқарилганда чегирма;

  - йиллик фоиз тўловлари;

  - тўлов бўйича мукофот.

Облигацияларнинг бошланғич қиймати эмиссиядан олинган соф тушум ҳисобланади.

Жами молиявий тўловлар доимий даврий фоиз ставкасини олиш учун воситанинг амал қилиш муддати давомида ҳисоблаб чиқилади.

Доимий даврий фоиз ставкаси (шунингдек, самарали ставка деб аталади) даромаднинг ички даражаси билан бир хил тарзда ҳисобланади. Имтиҳонда самарали фоиз ставкаси берилади.

Ушбу облигациялар, аксарият молиявий мажбуриятлар сингари, амортизация қилинган қиймат бўйича ўлчанади.

Номинал қиймати + самарали ставка бўйича ҳисобланган фоизлар - тўланган

фоизлар

Мавзуни ўрганиш натижасида қуйидаги таклифларга эришилди:

1. Молиявий инструментлар таърифларини умумлаштирган ҳолда қуйидаги “Молиявий инструментлар шартнома бўлиб, бир томон учун молиявий актив сифатида ҳисобга олинадиган, иккинчи томон учун эса молиявий мажбурият ёки улишли инструментлар сифатида ҳисобга олинувчи инструментлар ҳисобланади” таъриф ишлаб чиқилди.

2. Молиявий активларга қилинган ҳаққоний харажатлар қўшилишини, молиявий мажбуриятларга эса ушбу харажатлар айрилиб ҳисобга олинишини инобатга олган ҳолда ҳисоб сиёсатида қуйидаги счётлар киритишни таклиф этамиз.

- молиявий активларга қилинган харажатлар номли актив счёт.

- молиявий мажбуриятларга қилинган харажатлар номли контр актив счёт.

Бу счётлар бухгалтерия маълумотларини ишончлилигини, тушунарлилигини ва тақосланувчанлигини янада оширади .

Мавзуни ўрганиш натижасида қуйидаги хулосаларга эришилди:

1. Молиявий инструментларни халқаро ва миллий стандартларининг фарқли жиҳатлари аниқлаш ва уни 12 сонли “Молиявий инвестицияларни ҳисобга олиш” БҲМСни такомиллаштириш зарур.

2. Молиявий инструментларни учта модел, яъни фойда ёки зарарда тан олинган ўзгаришлар билан ҳаққоний қиймат, амортизация қилинган қиймат ва бошқа умумлашган даромадда тан олинган ҳаққоний қийматда ҳисобга олинади ҳамда фойда ёки зарарда тан олинган ўзгаришлар билан ҳаққоний қиймат модели умумий бўлиб ҳисобланади.

3. Молиявий инструментларни ҳисобга олишнинг жорий ташкилий ва услубий қоидаларни баҳолаш ва уларни ишлаб чиқиш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш зарур.

4. Амалдаги қонунчилик асосида молиявий инструментларни ҳисобга олиш учун бухгалтерия ҳисоби схемасини таклиф қилиш ва уни такомиллаштириш бўйича таклифлар ишлаб чиқиш зарур.

Фойдаланган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 24 февралдаги «Молиявий ҳисобот¬нинг халқаро стандартларига ўтиш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПҚ-4611-сон Қарори. https://lex.uz/docs/4746047.

2. МҲХС (IAS) 32 "Молиявий инструментлар: тан олиш" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

3. МҲХС (IFRS) 7 "Молиявий инструментлар: ахборотни ошкор қилиш". тан олиш"

номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

4. МҲХС (IFRS) 9 "Молиявий инструментлар" номли молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлари.

5. Фельдман А.Б., Производные финансовые и товарные инструменты. - М.: 2003

6. http: ifrs.com

Пу Кебин,
2-го курс магистрант в Ташкентского государственного экономического университета.
Email:1084583972@qq.com

Порядок формирования прибыли и убытков в соответствии с национальными стандартами

Формирование прибыли и убытков на предприятии является центральным элементом системы бухгалтерского учета, поскольку именно данный процесс отражает конечный результат всей хозяйственной деятельности. В соответствии с Национальными стандартами бухгалтерского учета (НСБУ) Республики Узбекистан порядок определения финансового результата базируется на последовательном сопоставлении доходов и расходов, а также на применении установленных принципов признания и оценки хозяйственных операций.

После определения себестоимости рассчитывается валовая прибыль. Этот показатель является первым уровнем финансового результата и отражает эффективность производственного процесса без учета управленческих и коммерческих расходов. На данном этапе уже можно оценить, насколько рационально предприятие использует производственные ресурсы.

Далее в учет включаются коммерческие расходы, связанные с реализацией продукции. Они включают транспортные расходы, расходы на упаковку, маркетинговые мероприятия и оплату услуг посредников. В условиях конкуренции на рынке строительных материалов данные расходы могут существенно влиять на конечный финансовый результат.

После учета коммерческих расходов формируется прибыль от основной деятельности. Этот показатель является более точным отражением операционной эффективности предприятия, поскольку учитывает не только производственные, но и сбытовые затраты.

Далее в расчет включаются прочие доходы и расходы. К ним относятся курсовые разницы, доходы от временного размещения свободных денежных средств, штрафы, пени и иные нерегулярные операции. Хотя данные элементы не относятся к основной деятельности, они могут существенно влиять на конечный финансовый результат, особенно в условиях нестабильной экономической среды.

На заключительном этапе определяется чистая прибыль предприятия. Она рассчитывается после вычета налога на прибыль в соответствии с Налоговым кодексом Республики Узбекистан. Чистая прибыль является итоговым показателем, который отражает реальный финансовый результат деятельности предприятия и используется для распределения между собственниками, реинвестирования и формирования резервных фондов.

Следует отметить, что между бухгалтерским и налоговым учетом прибыли могут возникать различия. Это связано с тем, что Налоговый кодекс устанавливает собственные правила признания доходов и расходов, которые не всегда совпадают с нормами НСБУ. В результате формируются временные и постоянные разницы, которые должны корректно отражаться в учетной системе.

С точки зрения корпоративного управления, процесс формирования прибыли имеет не только учетное, но и управленческое значение. Руководство предприятия использует данные о прибыли для оценки эффективности подразделений, анализа затрат и принятия стратегических решений.

Например, снижение валовой прибыли при стабильной выручке может сигнализировать о росте себестоимости продукции, что требует пересмотра закупочной политики или оптимизации производственных процессов.

Аналогично снижение чистой прибыли при стабильной операционной прибыли может указывать на рост налоговой нагрузки или увеличение прочих расходов.

Mediana	864,00	745,00	332,00	313,00	532,00	326,00
Standard Og’ishish	1479,10	1321,94	938,71	745,56	552,69	253,08
Minimal	139	127	34	31	105	66
Maksimal	4451	3980	2728	2172	1723	821

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulleten ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

- Ustav kapital: ustav kapitalning o'rtacha qiymati 371,57 mlrd. so’m, mediana 326,00 mlrd. so’m va standart og'ishi 253,08 mlrd. so’m bo’lgan. Minimal ustav kapital 66 mlrd. so’m, maksimal esa 821 mlrd. so’m bo’lgan.

Ushbu prognoz natijalari O‘zbekistonda mikromoliya tashkilotlari aktivlarining izchil va barqaror o‘sishda davom etishini ko‘rsatadi. Bu holat mazkur sektor uchun ijobiy istiqbol va kengayish imkoniyatlari mavjudligini bildiradi.

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari xalqaro tajriba tahlili mikromoliyalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri turli mamlakatlarda bir xil emasligini ko‘rsatadi. Ba’zi tadqiqotlar (Develtere & Huybrechts, 2005) bu ta’sirning har doim ham barqaror va aniq emasligini ta’kidlaydi. Bu esa mikromoliya samaradorligi nafaqat kredit berish hajmiga, balki institutsional muhit va boshqaruv sifatiga ham bog‘liqligini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston sharoitida prudensial normativlar va Markaziy bank nazorati ushbu barqarorlikni ta’minlashda asosiy vosita sifatida xizmat qilmoqda. Vaqt

qatorlari tahlili asosida olingan natijalar mikromoliya sektorining kelgusida ham o‘sish tendensiyasini saqlab qolishini ko‘rsatadi. Biroq bu o‘sish bilan birga kredit risklari, likvidlik bosimi va kapital yetarliligi kabi muammolar ham dolzarb bo‘lib qoladi. Shu sababli, risklarni boshqarish tizimini yanada takomillashtirish, ichki audit samaradorligini oshirish hamda buxgalteriya hisobi standartlarini xalqaro talablar bilan uyg‘unlashtirish zarur hisoblanadi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari O‘zbekistonda nobank kredit tashkilotlari sektorining kengayib borayotganini, biroq uning barqaror rivojlanishi uchun institutsional islohotlar, kuchli moliyaviy nazorat va shaffof buxgalteriya tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Tadqiqotdan olingan natijalar nobank kredit tashkilotlarining milliy moliyaviy tizimdagi o‘rni sezilarli darajada kengayib borayotganini va ular iqtisodiy inklyuziya hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi.

Shuningdek, xalqaro adabiyotlar tahlili mikromoliyalashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy ta’siri turli sharoitlarda turlicha namoyon bo‘lishini ko‘rsatdi. Bu esa mikromoliya samaradorligi nafaqat kreditlash hajmiga, balki institutsional muhit, boshqaruv sifati va risklarni boshqarish tizimiga ham bevosita bog‘liqligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, O‘zbekistonda nobank kredit tashkilotlari sektorining kelgusidagi rivoji uning institutsional mustahkamligi, buxgalteriya hisobi tizimining xalqaro standartlarga moslashuvi hamda samarali regulyativ nazorat bilan chambarchas bog‘liqdir. Tadqiqot natijalari ushbu sohada islohotlarni davom ettirish va moliyaviy barqarorlikni kuchaytirishga qaratilgan chora-tadbirlarning ahamiyatini yana bir bor tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 20.04.2022.
2. Develtere, P., & Huybrechts, A. (2005). “The Impact of Microcredit on the Poor in Bangladesh”.
3. A. F. Dyatlova & F. I. Vas'kin, 0. "Regulatory and methodological aspects of accounting in non-Bank financial institutions," Scientific notes of the Russian academy of entrepreneurship, JSC Publishing Agency Science and Education, issue 49.

4. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida* (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 15-sentabrdagi 21/4-son qarori, ro‘yxat raqami 3412-1). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 10/25/3412-1/0952-son. Kuchga kirish sanasi: 21.01.2026.

O'zbekiston Respublikasi nobank kredit tashkilotlari faoliyati

Maksud Zaxirov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti , “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Toshkent, O’zbekiston.
Email: maxzep28@gmail.com
ORCID: 0009-0003-8049-3895

Аннотация: *Mazkur maqola O‘zbekistonda nobank kredit tashkilotlari, xususan mikromoliya sektorining 2017–2023 yillardagi moliyaviy dinamikasini tahlil qilishga qaratilgan. Tadqiqotda Markaziy bank statistik ma’lumotlari asosida aktivlar, kreditlar, majburiyatlar va kapital ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Natijalar sektorning barqaror o‘sish tendensiyasiga ega ekanini, biroq moliyaviy o‘zgaruvchanlik va risklar mavjudligini ko‘rsatdi. Shuningdek, buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning shaffofligi nobank kredit tashkilotlari barqarorligida muhim rol o‘ynashi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *nobank kredit tashkilotlari, mikromoliya, buxgalteriya hisobi, moliyaviy tahlil, aktivlar, kreditlar, majburiyatlar*

KIRISH

So‘nggi yillarda nobank kredit tashkilotlari moliyaviy tizimning ajralmas qismi sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, ayniqsa rivojlanayotgan davlatlarda ularning roli sezilarli darajada ortib bormoqda. Ular aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlariga turli moliyaviy xizmatlarni taqdim etib, kambag‘allikni kamaytirish hamda tadbirkorlikni rivojlantirishga sezilarli hissa qo‘shadi. Shu bilan birga, ushbu tashkilotlarda buxgalteriya hisobi tizimini takomillashtirish, moliyaviy hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Nobank kredit tashkilotlari faoliyati va mikromoliyalashtirish sohasidagi munosabatlar 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni bilan tartibga soliadi. Mazkur qonunga muvofiq banklar tomonidan amalga oshiriladigan ayrim moliyaviy operatsiyalarning ushbu qonunda

ruxsat etilgan majmuini amalga oshiruvchi mikromoliya tashkiloti, lombard, faktoring tashkiloti, ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti, kafolatlar berish tashkiloti nobank kredit tashkiloti hisoblanadi.[1]

Ushbu tadqiqot, avvalo, buxgalteriya hisobi masalalariga, xususan moliyaviy hisobotlarning aniqligi, shaffofligi va ishonchliligini ta’minlashga qaratilgan bo‘lib, 2017 yildan 2023 yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekistondagi nobank kredit tashkilotlarining moliyaviy dinamikasini tahlil qiladi. Shuningdek, unda ushbu tashkilotlar faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar, ularning barqarorligi va duch kelayotgan muammolar bo‘yicha global yondashuvlar ham qamrab olinadi.

Dyatlova va Vaskin ta’kidlaganidek, buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan, nobank moliya institutlari faoliyati murakkab tartibga soluvchi talablar va maxsus hisob yuritish qoidalari bilan belgilanadi. Ushbu institutlarda moliyaviy operatsiyalarni to‘g‘ri aks ettirish, aktiv va majburiyatlarni aniq tasniflash hamda hisobotlarda ishonchli ma’lumotlarni taqdim etish muhim ahamiyatga ega. [2]

Doktor Man Bahadur BK va Medani P. Bhandari (2021) fikriga ko‘ra, mikromoliyalash turli hududlarda natijalari bir xil bo‘lmasa-da, qashshoqlikni qisqartirish hamda ayollar imkoniyatlarini kengaytirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘lmoqda.[3] Hindiston misolida Bansal (2012) mikrokreditlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan ijobiy ta’sirini qayd etib, ularning aholi farovonligini oshirish va ayollar faolligini kuchaytirishdagi rolini alohida ta’kidlaydi.[4]

MATERIAL VA METOD

Ushbu maqolada, avvalo, buxgalteriya hisobi masalalari, xususan moliyaviy ma’lumotlarni to‘g‘ri yuritish, hisobotlarning shaffofligi va ishonchliligini ta’minlash jihatlari tahlil qilinadi. Shu asosda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulleteni ma’lumotlari o‘rganilib, nobank kredit tashkilotlarining global miqyosdagi o‘rni va ta’siriga oid turli ilmiy-tahliliy ishlar natijalari umumlashtiriladi.

Tadqiqotning me’yoriy-huquqiy bazasi sifatida O‘zbekiston Respublikasining “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni, “Mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risida”gi Nizom hamda “Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish tartibi to‘g‘risida”gi Yo‘riqnoma keng qo‘llanilgan. Adabiyotlar tahlili esa jahon tajribasini chuqur o‘rganish maqsadida Osiyo, Afrika, Lotin Amerikasi va Yevropa mintaqalarini qamrab oladi.

NATIJALAR

Quyidagi jadvalda 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan O’zbekiston

Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonunida keltirilgan nobank kredit tashkilotlari faoliyati tavsifi yoritiladi.

Jadval-1

Nobank kredit tashkilotlari va ularning faoliyati tavsifi

Nobank kredit tashkiloti	**Nobank kredit tashkilotlari faoliyati tavsifi**
1. Mikromoliya tashkiloti	Mikromoliyalashtirish faoliyatini amalga oshiruvchi, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko‘rsatuvchi yuridik shaxs
2. Lombard	Shaxsiy iste’molga mo‘ljallangan ko‘char mol-mulkning (ashyoning) zakalat tarzidagi garovi asosida jismoniy shaxslarga qisqa muddatli mikroqarzlar berishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs
3. Faktoring tashkiloti	Pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) faoliyatini amalga oshiruvchi yuridik shaxs
4. Ipotekani qayta moliyalashtirish tashkiloti	Moliyaviy mablag‘larni jalb qilish va ularni ipoteka kreditlarini qayta moliyalashtirishga yo‘naltirish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs
5. Kafolatlar berish tashkiloti	Yuridik va jismoniy shaxslarning kredit tashkiloti oldidagi pul majburiyatini bajarish bo‘yicha kafolatlar (kafilliklar) berish faoliyatini professional asosda amalga oshiruvchi, shuningdek qonunchilikda nazarda tutilgan boshqa xizmatlarni ko‘rsatuvchi yuridik shaxs

Manba: O’zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 20.04.2022

Nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi, ichki audit va auditorlik tekshiruviga to’xtaladigan bo’lsak, nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi amaldagi qonunchilik talablariga qat’iy rioya etgan holda tashkil etilishi va yuritilishi lozim. Ushbu tashkilotlar moliyaviy hamda nazoratga oid hisobotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan shakl va tartiblarga muvofiq ravishda o‘z vaqtida taqdim etishi shart bo‘lib, taqdim etilgan hisobotlarning to‘liqligi va ishonchliligi uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Mazkur talablar moliyaviy axborotning shaffofligini ta’minlash hamda regulyativ nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ichki nazorat tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ichki audit xizmati tashkil etilishi majburiy hisoblanadi. Ushbu talab aktivlari ma’lum belgilangan chegaradan yuqori bo‘lgan mikromoliya va faktoring tashkilotlari, lombardlar, ipotekani qayta moliyalashtirish hamda kafolat berish tashkilotlariga tatbiq etiladi. Ichki audit xizmati tashkiliy jihatdan mustaqil bo‘lib, bevosita kuzatuv kengashiga hisobdor hisoblanadi.

Ichki auditning asosiy vazifasi ijro etuvchi organlar hamda filiallar faoliyatining qonunchilik hujjatlari, ta’sis hujjatlari va ichki me’yoriy talablariga muvofiqligini baholashdan iboratdir. Shuningdek, u buxgalteriya hisobi va

moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning to‘liq va to‘g‘ri aks ettirilishini tekshiradi, aktivlarning saqlanish holatini nazorat qiladi hamda tashkilotning umumiy moliyaviy boshqaruv tizimini monitoring qiladi.

Bundan tashqari, nobank kredit tashkilotlarining yillik moliyaviy hisobotlari majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilishi lozim. Markaziy bank talablari asosida ushbu tekshiruv tashkilot faoliyatining umumiy holatini yoki alohida yo‘nalishlarini qamrab olishi mumkin. Auditorlik jarayoni moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tasdiqlash hamda tashqi manfaatdor tomonlar uchun xolis axborot taqdim etishni ta’minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, tashkilotlar yillik moliyaviy hisobotni auditorlik xulosasi bilan birgalikda ishtirokchilar yoki aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishidan kamida ikki hafta oldin oshkor etishi shart. Bu talab korporativ shaffoflikni kuchaytirish va investorlar ishonchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.[5]

O'zbekiston mikromoliya tashkilotlarining tavsifiy statistikasi

- Aktivlar: Aktivlarning o'rtacha qiymati 1398,14 mlrd. so’mni, mediana 864 mlrd. so’mni, standart og'ish 1479,10 mlrd. so’mni tashkil etadi, bu mikromoliya tashkilotlari aktivlarining yillar davomida sezilarli o'zgaruvchanligini ko'rsatadi. Aktivlar 2017-yilda minimal 139 mlrd. so’mdan 2023-yilda maksimal 4451mlrd. so’mgacha oshgan.
- Kreditlar, sof: Sof kreditlarning o'rtacha qiymati 1244,004451 mlrd. so’m, mediana 745,00 mlrd. so’m va standart og'ishi 1321,94 4451mlrd. so’m bo’lgan. Sof kreditlar diapazoni 1271 mlrd. so’mdan 3980 mlrd. so’mgacha bo'lgan.
- Majburiyatlar: Majburiyatlar o'rtacha 715,57 mlrd. so’m, mediana 332,00 mlrd. so’m va standart og'ish 938,71 mlrd. so’ ni tashkil etgan. Minimal majburiyat 2017-yilda 34 mlrd. so’mni, maksimali esa 2023-yilda 2728 mlrd. so’mni tashkil etgan.

Jadval-2

O'zbekistonda mikromoliya tashkilotlarining moliyaviy ko'rsatkichlari (mlrd. so’m).

Yil	Aktivlar	Kreditlar (sof)	Majburiyatlar	Olingan kreditlar	Jami kapital	Ustav kapital
2017	139	127	34	31	105	66
2018	354	322	115	104	239	169
2019	711	642	272	253	439	278
2020	864	745	332	313	532	326
2021	1272	1123	586	555	686	377
2022	1996	1769	942	903	1054	564
2023	4451	3980	2728	2172	1723	821

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni.

- Qarz olingan kreditlar: o'rtacha qarz 618,71 mlrd. so’m, o'rtacha 313,00 mlrd. so’m va standart og'ish 745,56 mlrd. so’mni tashkil etgan. Qarz olingan kreditlar 31 mlrd. so’mdan 2172 mlrd. so’mgacha bo'lgan.
- Jami kapital: o'rtacha jami kapital 682,57 mlrd. so’m, o'rtacha 532,00 mlrd. so’m bo’lgan. Standart og'ish 105 mlrd. so’mdan 1723 mlrd. so’mgacha bo'lib 552,69 mlrd. so’mni tashkil etgan.

Mazkur prognoz natijalari O‘zbekistonda mikromoliya tashkilotlarining aktivlari barqaror va sezilarli o‘sish tendensiyasini davom ettirishini ko‘rsatadi, bu esa ushbu soha uchun ijobiy va istiqbolli rivojlanish imkoniyatlarini anglatadi.

MUNOZARA

Ushbu tadqiqot natijalari O‘zbekistonda nobank kredit tashkilotlari, xususan mikromoliya sektorining so‘nggi yillarda jadal rivojlanayotganini va moliyaviy tizimdagi ahamiyati ortib borayotganini ko‘rsatadi. Nazariy va empirik tahlillar ushbu institutlarning iqtisodiy inklyuziyani kengaytirish, kichik biznesni moliyalashtirish hamda ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarning moliyaviy resurslarga kirishini ta’minlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, 2017–2023 yillar davomida mikromoliya tashkilotlarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari, jumladan aktivlar, kredit portfeli, majburiyatlar va kapital hajmi sezilarli darajada oshgan. Ayniqsa 2020 yildan keyingi davrda o‘sish sur’atlarining tezlashishi kuzatiladi, bu esa sektorning kengayishi va moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talabning ortishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, yuqori standart og‘ish qiymatlari moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasida sezilarli tebranishlar mavjudligini bildiradi, bu esa sektorning hali ham nisbatan o‘zgaruvchan va riskka moyil ekanligini ko‘rsatadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan, nobank kredit tashkilotlarida moliyaviy axborotning sifati va shaffofligi muhim o‘rin tutadi. Dyatlova va Vaskin tomonidan ta’kidlanganidek, murakkab tartibga soluvchi muhit va maxsus hisob yuritish talablari moliyaviy operatsiyalarni to‘g‘ri aks ettirishni talab etadi. Tadqiqot natijalari ham shuni ko‘rsatadiki, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligi va to‘liqligi regulyativ nazorat hamda ichki audit tizimining samaradorligi bilan bevosita bog‘liqdir. Bu esa O‘zbekistonda buxgalteriya hisobi va audit tizimini modernizatsiya qilish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning dolzarbligini tasdiqlaydi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda nobank kredit tashkilotlari, xususan mikromoliya sektori faoliyatining 2017–2023 yillardagi moliyaviy dinamikasini

tahlil qilishga hamda buxgalteriya hisobi, regulyativ talablar va xalqaro ilmiy yondashuvlar asosida ularning rivojlanish tendensiyalarini baholashga qaratildi. Olingan natijalar nobank kredit tashkilotlarining milliy moliyaviy tizimdagi o‘rni sezilarli darajada kengayib borayotganini va ular iqtisodiy inklyuziya hamda moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishda muhim rol o‘ynayotganini ko‘rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida mikromoliya tashkilotlarining asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlari — aktivlar, kredit portfeli, majburiyatlar va kapital hajmi — izchil o‘sish tendensiyasiga ega ekani aniqlandi. Shu bilan birga, yuqori o‘zgaruvchanlik darajasi ushbu sektorning hali ham riskka moyil ekanligini va moliyaviy barqarorlikni mustahkamlash zarurligini bildiradi.

Buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar sifati nobank kredit tashkilotlari faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Shaffof va ishonchli moliyaviy axborot tizimi ichki boshqaruv samaradorligini oshirish, tashqi nazoratni kuchaytirish hamda investorlar ishonchini mustahkamlashda muhim omil hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ichki audit va tashqi auditorlik mexanizmlarining rivojlanishi sektor barqarorligini ta’minlashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

5. O’zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 20.04.2022.
6. A. F. Dyatlova & F. I. Vas'kin, 0. "Regulatory and methodological aspects of accounting in non-Bank financial institutions," Scientific notes of the Russian academy of entrepreneurship, JSC Publishing Agency Science and Education, issue 49.
7. BK, M. B., & Bhandari, M. P. (2021). “Microfinance Institutions: Instrumental for Promoting Financial Inclusion”. Financial Markets Institutions and Risks.
8. Bansal, A. (2012). “Finance for the poor: From microcredit to microfinancial services in India”.
9. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). *Mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida* (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 15-sentabrdagi 21/4-son qarori, ro‘yxat raqami 3412-1). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 10/25/3412-1/0952-son. Kuchga kirish sanasi: 21.01.2026.

O‘zbekistonda lombardlar faoliyati va hisobi amaliyoti

Maksud Zaxirov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti , “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Toshkent, O’zbekiston.
Email: maxzep28@gmail.com
ORCID: 0009-0003-8049-3895

Annotatsiya: *Ushbu maqola O‘zbekistonda lombard tashkilotlarining 2017–2023 yillardagi moliyaviy faoliyatini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik ma’lumotlari asosida aktivlar, sof kreditlar, majburiyatlar va kapital ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Tavsifiy statistika va vaqt qatori qo‘llanildi. Natijalar lombardlar buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarning shaffofligi sektor barqarorligida muhim omil ekanligi aniqlandi.*

Kalit so‘zlar: *lombard, mikromoliya, aktivlar, kreditlar, buxgalteriya hisobi.*

KIRISH

Lombardlar jismoniy shaxslarga shaxsiy iste’mol uchun mo‘ljallangan ko‘char mulkni garov sifatida qabul qilib, shu garov evaziga bir yilgacha muddatga qisqa muddatli mikroqarzlar berish huquqiga ega. Bundan tashqari, ular fuqarolardan ko‘char mulkni vaqtincha saqlash xizmatini ham amalga oshirishi mumkin [1].

Nobank moliya institutlarida buxgalteriya hisobi murakkab tartibga soluvchi talablar va maxsus hisob yuritish qoidalari asosida olib boriladi. Doimiy nazorat va hisobot talablari esa regulyatorlarga tashkilotlarning faoliyatini kuzatish va ularning qonunchilikka muvofiqligini ta’minlash imkonini beradi [2].

Caskey (1991) esa AQSh tajribasini tahlil qilib, lombardlar asosan past daromadli aholiga kichik hajmdagi garov asosidagi kreditlar berishini ko‘rsatadi. Bu guruh odatda bank kreditlaridan foydalana olmaydi. Tadqiqotda lombardlar davlat tomonidan tartibga solinishiga qaramay, ayrim hududlarda muhim moliyaviy xizmat ko‘rsatuvchi institut sifatida saqlanib qolayotgani, ularning rivojlanishi esa mintaqaviy farqlarga bog‘liqligi ta’kidlanadi [3].

Amaldagi tartibga ko‘ra, lombardlar fuqarolar bilan shartnomalar asosida ishlaydi hamda shaxsni tasdiqlovchi hujjatlar taqdim etilganda xizmat ko‘rsatadi. O‘zbekiston Respublikasining “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq, lombardlar ko‘char mulk garovi evaziga qisqa muddatli mikroqarzlar beruvchi yuridik shaxslar hisoblanadi [4].

Ushbu maqola esa mamlakatimiz lombardlarning 2017–2023 yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilib, asosiy indikatorlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganadi [5].

MATERIAL VA METOD

Ushbu tadqiqot mamlakatimiz lombard tashkilotlarining 2017–2023 yillardagi moliyaviy faoliyatini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, asosiy maqsad moliyaviy ko‘rsatkichlar dinamikasini baholash va ular o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni aniqlashdan iborat.

Metodologiyada tavsiflovchi statistika, vaqt qatori tahlili va korrelyatsiya tahlili qo‘llanildi. Tavsiflovchi statistika yordamida o‘rtacha qiymat, mediana, minimal–maksimal ko‘rsatkichlar va standart og‘ishish hisoblandi. Vaqt qatori tahlili orqali moliyaviy ko‘rsatkichlarning o‘sish tendensiyasi o‘rganildi, korrelyatsiya tahlili esa asosiy moliyaviy indikatorlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlashga xizmat qildi.

NATIJALAR

Lombard tashkilotining ustav kapitali O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida shakllantiriladi va faqat tashkilot muassislari, ishtirokchilari yoki aksiyadorlari tomonidan kiritilgan pul mablag‘laridan iborat bo‘ladi. Ushbu kapitalni shakllantirish jarayonida kredit mablag‘lari, garovga olingan yoki majburiyat yuklangan mablag‘lardan, shuningdek noqonuniy (jinoiy faoliyatdan olingan) mablag‘lardan foydalanishga yo‘l qo‘yilmaydi.

Ustav kapitalining eng kam miqdori lombardlar uchun esa 500 million so‘m etib belgilangan. Shuningdek, ustav kapitali davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun ariza topshirilgunga yoki faoliyat boshlanishi haqida xabarnoma yuborilgunga qadar to‘liq shakllantirilishi va bank hisobvarag‘ida saqlanishi talab etiladi.

Jadval-1

Lombard tashkilotining ustav fondi (ustav kapitali)

Tashkilot turi	**Ustav kapitalining eng kam miqdori**	**Asosiy talablar**
Lombard	500 million so‘m	Faoliyat boshlashdan oldin ustav kapitali to‘liq shakllantirilishi shart

Manba: O’zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 20.04.2022

Lombard tashkilotlarining yillik moliyaviy hisobotlari majburiy auditorlik tekshiruvidan o‘tkazilishi lozim. Markaziy bank talablari asosida ushbu tekshiruv tashkilot faoliyatining umumiy holatini yoki alohida yo‘nalishlarini qamrab olishi mumkin. Auditorlik jarayoni moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini tasdiqlash hamda tashqi manfaatdor tomonlar uchun xolis axborot taqdim etishni ta’minlashga qaratilgan.

Shu bilan birga, tashkilotlar yillik moliyaviy hisobotni auditorlik xulosasi bilan birgalikda ishtirokchilar yoki aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishidan kamida ikki hafta oldin oshkor etishi shart. Bu talab korporativ shaffoflikni kuchaytirish va investorlar ishonchini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Lombardlar o‘z faoliyat yo‘nalishiga muvofiq ravishda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankiga belgilangan shakllarda moliyaviy va nazoratga oid hisobotlarni, shuningdek ularning elektron ma’lumotlarini taqdim etishi shart. Ushbu hisobotlar tashkilotlarning moliyaviy holati va operatsion faoliyatini kompleks baholash imkonini beruvchi bir qator asosiy ko‘rsatkichlarni qamrab oladi.

Xususan, taqdim etiladigan hisobotlar tarkibiga buxgalteriya balansi, balans hisoboti hamda moliyaviy natijalar to‘g‘risidagi hisobot kiradi. Shuningdek, kapital tarkibidagi o‘zgarishlar, berilgan kreditlar va lizing xizmatlari, faktoring operatsiyalari, qimmatli qog‘ozlar portfeli hamda investitsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar ham taqdim etiladi.

Bundan tashqari, jalb qilingan mablag‘lar, berilgan kafolat va kafilliklar, shuningdek muqobil moliyalashtirish xizmatlari, jumladan nasiya savdo (murobaha), islomiy ijara (ijara), oldindan to‘lov asosidagi moliyalashtirish (salam) hamda foyda va zararlarni taqsimlashga asoslangan moliyalashtirish (muzoraba va mushoraka) bo‘yicha ma’lumotlar ham hisobot tarkibiga kiritiladi.

Hisobot tizimi, shuningdek, aktivlar va majburiyatlar tahlili, aloqador shaxslar bilan tuzilgan bitimlar, yirik tavakkalchiliklar hamda prudensial normativlarga rioya etish holati to‘g‘risidagi ma’lumotlarni ham o‘z ichiga oladi.

Mazkur keng qamrovli hisobotlar to‘plami moliyaviy barqarorlikni ta’minlash, risklarni baholash hamda regulyativ nazoratni kuchaytirish uchun muhim axborot manbai bo‘lib xizmat qiladi.[8]

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgandagi lombardlarning 2017-2023 yillardagi moliyaviy ma’lumotlarini tahlili natijalarini quyidagi tavsifiy statistika ma’lumotlari va korrelyatsion tahlil asosida ko’rib chiqamiz. So’ngra tahlil natijalarini munozara qismida ko’rib o’tamiz.

- Aktivlar 2017-yildagi 80 million so‘mdan 2023-yilda 336 million so‘mgacha sezilarli darajada oshgan.
- Shu davrda sof kreditlar hajmi 65 million so‘mdan 280 million so‘mgacha o‘sgan.
- Majburiyatlar 9 million so‘mdan 41 million so‘mga ko‘tarilgan.
- Qarzga olingan kreditlar 1 million so‘mdan 28 million so‘mga ko‘paygan.
- Jami kapital 71 million so'mdan 295 million so'mga oshgan.
- Ustav kapitali 19 million so'mdan 90 million so'mgacha o'sgan.

O‘zbekistonda lombardlar barqaror o‘sib borayotganidan dalolat beradi. Masalan, aktivlar, sof kreditlar va jami kapital tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, shu bilan birga majburiyatlar, ustav kapital va olingan kreditlar kabi boshqa ko'rsatkichlar ham mos ravishda o'sib bormoqda.

Jadval-2

Tavsifiy statistika

Statistika	Aktivlar	Kreditlar (sof)	Majburiyat	Olingan kreditlar	Jami kapital	Ustav kapital
O’rtacha qiymat	181,43	150,43	19,86	11,43	161,57	55,71
Mediana	146,00	126,00	18,00	11,00	128,00	52,00
Standard Og’ishish	91,52	77,16	12,02	10,18	79,75	23,86
Minimal	80	65	9	1	71	19
Maksimal	336	280	41	28	295	90

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Statistik byulleten ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tahlil qilingan.

O'tgan davr mobaynida aktivlarning o'rtacha qiymati 181,43 million so'mni, sof kreditlar esa o'rtacha 150,43 million so'mni tashkil etdi. Standart og'ishish ko'rsatkichlari sezilarli o'zgaruvchanlikni ko'rsatadi, ayniqsa ssudalar bo'yicha.

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari aktivlar, sof kreditlar va jami kapital ko‘rsatkichlarining sezilarli oshishi sektorning kengayib borayotganini va aholi orasida lombard xizmatlariga bo‘lgan talab ortayotganini tasdiqlaydi. Aktivlarning 80 million so‘mdan 336 million so‘mgacha oshishi lombardlarning moliyaviy salohiyati mustahkamlanayotganini anglatadi.

Buxgalteriya hisobi nuqtayi nazaridan, lombardlarda moliyaviy operatsiyalarning to‘g‘ri aks ettirilishi va aktivlar, majburiyatlar hamda kapitalning aniq tasniflanishi moliyaviy natijalarning ishonchliligini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Hisobotlarning Markaziy bank talablari asosida yuritilishi esa moliyaviy shaffoflikni oshiradi va sektor ustidan samarali nazoratni ta’minlaydi. Shu bilan birga, ichki audit va majburiy tashqi audit jarayonlari moliyaviy intizomni kuchaytirib, risklarni kamaytirishga xizmat qiladi.

XULOSA

Ushbu tadqiqot O‘zbekistonda lombard tashkilotlarining 2017–2023 yillardagi moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish orqali ularning rivojlanish

tendensiyalari va moliyaviy holatini baholashga qaratildi.

Buxgalteriya hisobi va hisobot tizimi tahlili lombardlarda moliyaviy ma’lumotlarning to‘g‘ri aks ettirilishi, qat’iy tartibga solish talablari va majburiy audit jarayonlari moliyaviy shaffoflikni ta’minlashda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatdi. Bu esa o‘z navbatida investorlar va regulyatorlar ishonchini oshirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, lombard sektori O‘zbekiston moliya tizimida muhim o‘rin egallab, aholiga tezkor va garov asosidagi moliyaviy xizmatlar ko‘rsatishda muqobil kredit manbai sifatida faoliyat yuritmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O’zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 20.04.2022.
2. A. F. Dyatlova & F. I. Vas'kin, 0. "Regulatory and methodological aspects of accounting in non-Bank financial institutions," Scientific notes of the Russian academy of entrepreneurship, JSC Publishing Agency Science and Education, issue 49.
3. Bouman, F., & Houtman, R. (1988). “Pawnbroking as an Instrument of Rural Banking in the Third World”.
4. Caskey, J. (1991). “Pawnbroking in America: The Economics of a Forgotten Credit Market”.
5. Nazarova , M. (2023). “Lombardlar faoliyatining zamonaviy holati tahlili”
6. O’zbekiston Respublikasining “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022 yil 20 aprel.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2017-2023). “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni”.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 15-sentabrdagi 21/4-son qarori, ro‘yxat raqami 3412-1). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 10/25/3412-1/0952-son. Kuchga kirish sanasi: 21.01.2026.

Lombard tashkilotlari moliyaviy ko‘rsatkichlari: O‘zbekiston amaliyoti

Maksud Zaxirov,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti , “Buxgalteriya hisobi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, Toshkent, O’zbekiston.
Email: maxzep28@gmail.com
ORCID: 0009-0003-8049-3895

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O‘zbekiston Respublikasida lombardlarining moliyaviy faoliyatini o’rganilgan. Maqolada Markaziy bank ma’lumotlari asosida aktivlar, sof kreditlar, majburiyatlar va kapital ko‘rsatkichlari o‘rganildi. Vaqt qatori va moliyaviy tahlillar qo‘llanildi. Natijalar lombardlar moliyaviy ko‘rsatkichlarida barqaror o‘sish mavjudligini, biroq ayrim o‘zgaruvchanlik va risklar saqlanib qolayotganini ko‘rsatdi.*
Kalit so‘zlar: *lombard, mikromoliya, aktivlar, kreditlar, moliyaviy tahlil.*

KIRISH

Lombard tashkilotlarining faoliyati 2022-yil 20-aprelda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni asosida tartibga solinadi. Ushbu qonunga ko‘ra, banklar tomonidan amalga oshiriladigan ayrim moliyaviy xizmatlarni qonun doirasida bajaruvchi mikromoliya tashkilotlari, lombardlar, faktoring va ipotekani qayta moliyalashtirish tashkilotlari, shuningdek kafolat beruvchi tashkilotlar nobank kredit tashkilotlari sifatida tasniflanadi.[1]

Dyatlova va Vaskin ta’kidlashicha, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, bu jarayonlar institutlarning moliyaviy barqarorligini ta’minlash va risklarni samarali boshqarishga xizmat qiladi. [2].

Bouman va Houtman (1988) o‘z tadqiqotida lombardlarning norasmiy moliyaviy vosita sifatidagi rolini, ayniqsa rivojlanayotgan mamlakatlardagi qishloq moliya tizimlari misolida ko‘rib chiqadi. Ular lombardlar rasmiy moliya institutlari yetarlicha qamrab ololmaydigan qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatishda samarali ekanini ta’kidlaydi. Tadqiqotga ko‘ra, yuqori xarajatlar va turli cheklovlarga qaramay, lombardlar past operatsion xarajatlari, mahalliy sharoitni yaxshi bilishi va keng kirish imkoniyati tufayli tashqi subsidiyalarsiz ham faoliyat yurita oladi [3].

Nazarova (2023) O‘zbekiston sharoitida lombardlar faoliyatini o‘rganib, ularning huquqiy asoslari va moliyaviy tizimdagi o‘rnini tahlil qiladi. Tadqiqot lombardlarning milliy iqtisodiyotda muqobil kredit manbai sifatida ahamiyatini va ularning amaldagi huquqiy muhitga mos faoliyat yuritishini yoritadi [4].

Mazkur maqola O‘zbekistondagi lombardlarning moliyaviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilib, asosiy indikatorlar va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganishga qaratilgan [5].

MATERIAL VA METOD

Tadqiqotda O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulletenlari asosiy ma’lumot manbai sifatida foydalanildi. Tahlil uchun aktivlar, sof kreditlar, majburiyatlar, jalb qilingan kreditlar, jami kapital va ustav kapitali bo‘yicha 2017–2023 yillarga oid yillik ma’lumotlar jamlandi.

Buxgalteriya hisobi jihatidan lombardlarda moliyaviy operatsiyalarning balans va moliyaviy natijalar hisobotida to‘g‘ri aks ettirilishi, aktivlar, majburiyatlar va kapitalning aniq tasniflanishi hamda hisobotlarning milliy standartlar va Markaziy bank talablari bilan mosligi tahlil qilindi. Bu moliyaviy axborotning ishonchliligi va shaffofligini baholash imkonini berdi. Tadqiqotning nazariy asosini milliy qonunchilik va buxgalteriya hisobi me’yoriy hujjatlari, shuningdek xalqaro ilmiy adabiyotlar tashkil etdi. Umuman olganda, ushbu yondashuv lombard sektorining moliyaviy holati va buxgalteriya amaliyotlarini kompleks baholashga xizmat qiladi.

NATIJALAR

2022-yil 20-aprelda qabul qilingan O’zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuniga muvofiq lombardlar shaxsiy iste’molga mo‘ljallangan ko‘char mol-mulkning (ashyoning) zakalat tarzidagi garovi asosida jismoniy shaxslarga qisqa muddatli mikroqarzlar berishga doir faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxs hisoblanadi.

Lombard tashkilotida buxgalteriya hisobi, ichki audit va auditorlik tekshiruviga to’xtaladigan bo’lsak, nobank kredit tashkilotlarida buxgalteriya hisobi amaldagi qonunchilik talablariga qat’iy rioya etgan holda tashkil etilishi va yuritilishi lozim. Ushbu tashkilotlar moliyaviy hamda nazoratga oid hisobotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan shakl va tartiblarga muvofiq ravishda o‘z vaqtida taqdim etishi shart bo‘lib, taqdim etilgan hisobotlarning to‘liqligi va ishonchliligi uchun to‘liq javobgarlikni o‘z zimmasiga oladi. Mazkur talablar moliyaviy axborotning shaffofligini ta’minlash hamda regulyativ nazorat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ichki nazorat tizimining muhim tarkibiy qismi sifatida ichki audit xizmati tashkil etilishi majburiy hisoblanadi. Ushbu talab aktivlari ma’lum belgilangan chegaradan yuqori bo‘lgan mikromoliya va faktoring tashkilotlari, lombardlar, ipotekani qayta moliyalashtirish hamda kafolat berish tashkilotlariga tatbiq etiladi. Ichki audit xizmati tashkiliy jihatdan mustaqil bo‘lib, bevosita kuzatuv kengashiga hisobdor hisoblanadi.

Ichki auditning asosiy vazifasi ijro etuvchi organlar hamda filiallar

faoliyatining qonunchilik hujjatlari, ta’sis hujjatlari va ichki me’yoriy talablariga muvofiqligini baholashdan iboratdir. Shuningdek, u buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning to‘liq va to‘g‘ri aks ettirilishini tekshiradi, aktivlarning saqlanish holatini nazorat qiladi hamda tashkilotning umumiy moliyaviy boshqaruv tizimini monitoring qiladi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat olib borayotgandagi lombardlarning 2017-2023 yillardagi moliyaviy ma’lumotlarini tahlili natijalarini quyidagi tavsifiy statistika ma’lumotlari va korrelyatsion tahlil asosida ko’rib chiqamiz. So’ngra tahlil natijalarini munozara qismida ko’rib o’tamiz.

Tavsifiy statistika

Jadval-1

O'zbekistondagi lombardlarning moliyaviy ko'rsatkichlari

Yil	Aktivlar	Kreditlar (sof)	Majburiyatlar	Olingan kreditlar	Jami kapital	Ustav kapital
2017	80	65	9	1	71	19
2018	109	86	10	2	99	39
2019	130	105	10	4	120	47
2020	146	126	18	11	128	52
2021	209	176	21	13	188	68
2022	260	215	30	21	230	75
2023	336	280	41	28	295	90

Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni.

1-jadvalda ko'rsatilgandek:

- Aktivlar 2017-yildagi 80 million so‘mdan 2023-yilda 336 million so‘mgacha sezilarli darajada oshgan.
- Shu davrda sof kreditlar hajmi 65 million so‘mdan 280 million so‘mgacha o‘sgan.
- Majburiyatlar 9 million so‘mdan 41 million so‘mga ko‘tarilgan.
- Qarzga olingan kreditlar 1 million so‘mdan 28 million so‘mga ko‘paygan.
- Jami kapital 71 million so'mdan 295 million so'mga oshgan.
- Ustav kapitali 19 million so'mdan 90 million so'mgacha o'sgan.

O‘zbekistonda lombardlar barqaror o‘sib borayotganidan dalolat beradi. Masalan, aktivlar, sof kreditlar va jami kapital tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda, shu bilan birga majburiyatlar, ustav kapital va olingan kreditlar kabi boshqa ko'rsatkichlar ham mos ravishda o'sib bormoqda.

O'tgan davr mobaynida aktivlarning o'rtacha qiymati 181,43 million so'mni, sof kreditlar esa o'rtacha 150,43 million so'mni tashkil etdi. Standart og'ishish ko'rsatkichlari sezilarli o'zgaruvchanlikni ko'rsatadi, ayniqsa ssudalar bo'yicha.

MUNOZARA

Tadqiqot natijalari lombard tashkilotlari faoliyatining yillar davomida barqaror va izchil o‘sish tendensiyasiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Xususan, aktivlar, sof kreditlar va jami kapital ko‘rsatkichlarining sezilarli oshishi sektorning kengayib borayotganini va aholi orasida lombard xizmatlariga bo‘lgan talab ortayotganini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, natijalar lombard sektorining O‘zbekiston moliya tizimida muhim o‘rin egallayotganini, uning barqaror o‘sishi esa huquqiy tartibga solish, buxgalteriya hisobi sifati va bozor talabining oshishi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatadi.

XULOSA

Olingan natijalar lombardlar aktivlari, sof kreditlari va kapitali barqaror ravishda o‘sib borayotganini ko‘rsatdi, bu esa sektorning kengayib borayotgani va moliyaviy xizmatlarga bo‘lgan talab ortayotganini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, majburiyatlar va jalb qilingan kreditlar hajmining oshishi lombardlar faoliyatida moliyaviy resurslarga bo‘lgan ehtiyoj ham ortayotganini ko‘rsatadi. Tavsifiy statistika natijalari esa ayrim moliyaviy ko‘rsatkichlarda sezilarli o‘zgaruvchanlik mavjudligini aniqladi, bu esa sektorning risk darajasi nisbatan yuqoriligini bildiradi.

Kelgusida ushbu sohada risklarni boshqarish mexanizmlarini yanada takomillashtirish va buxgalteriya hisobi shaffofligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

9. O’zbekiston Respublikasining O‘RQ-765-son “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi qonuni, 20.04.2022.
10. A. F. Dyatlova & F. I. Vas'kin, 0. "Regulatory and methodological aspects of accounting in non-Bank financial institutions," Scientific notes of the Russian academy of entrepreneurship, JSC Publishing Agency Science and Education, issue 49.
11. Bouman, F., & Houtman, R. (1988). “Pawnbroking as an Instrument of Rural Banking in the Third World”.
12. Caskey, J. (1991). “Pawnbroking in America: The Economics of a Forgotten Credit Market”.
13. Nazarova , M. (2023). “Lombardlar faoliyatining zamonaviy holati tahlili”
14. O’zbekiston Respublikasining “Nobank kredit tashkilotlari va mikromoliyalashtirish faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuni. 2022 yil 20 aprel.

15. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2017-2023). “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki statistik byulleteni”.
16. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2025). Mikromoliya tashkilotlari, faktoring tashkilotlari va lombardlar faoliyatini muvofiqlashtirish va tartibga solish to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida (O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining 2025-yil 15-sentabrdagi 21/4-son qarori, ro‘yxat raqami 3412-1). Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 20.10.2025-y., 10/25/3412-1/0952-son. Kuchga kirish sanasi: 21.01.2026.

AVTOMOBIL YO`LLAR TIZIMIDAGI BUDJET TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HUQUQIY ASOSLARI HAMDA HISOB YURITISH USULLARI.

Abduraxmanov R.A.
TDIU buxgalteriya hisobi kafedrasi
katta o‘qituvchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu tezisda O‘zbekiston Respublikasida budjet mablag‘larini to‘g‘ri yo’naltirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida, bu jarayonga kelib chiqayotgan muammolar va ularni hal etish uchun taklif hamda tavsiyalar berilgan. 2026-yil uchun respublikamizda budjet tizimini yaxshilashga qaratilgan qarorlar haqida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Budjet kodeksi, davlat budjet, budjet mablag‘lari, budjetdan tashqari mablag‘larni samarali yo‘naltirish, davlat budjeti daromadlari va xarajatlari, prognoz, turli sohalar, optimallashtirish, davlat maqsadli jamg‘armalari.

Budjet tashkilotlar hisob tizimi qonunchilik tizimida eng asosiy me`yoriy huquqiy asoslardan biri “Budjet kodeksi” hisoblanadi. Ushbu kodeksda Budjet tashkilotlari hisob tizimi bo`yicha dastlabki va asosiy tayanch tushunchalar va tartiblar belgilab qo`yilgan. Budjet tashkilotlar hisob tizimini o`rganishda, birinchi navbatda, ushbu kodeks bilan to`liq tanishib chiqish zarur hisoblanadi. Xususan, budjet hisoboti turlari, budjet tashkiloti moliyaviy hisobotlari, shtatlar jadvali, xarajatlar smetalarini tuzish, tasdiqlash, ro`yxatdan o`tqazish hamda ularga o`zgartirish kiritishkabi munosabatlar ushbu kodeks qoidalari asosida belgilanadi. Shuningdek, “Budjet kodeksi”da budjet tashkilotlarining budjet va budjetdan tashqari mablag`lari ijrosi tartibi ham berilgan.

“Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni budjet tashkilotlari buxgalteriya hisobi uchun umumiy qonuniy asos bo`lib xizmat qiladi. Ushbu qonun hujjatida tegishli hisob hujjatlari, moliyaviy hisobot hamda uni taqdim qilish, e`lon qilish tariblari belgilab berilgan. Shuning uchun ham “Buxgalteriya hisobi to‘g‘risida”gi qonun budjet tashkilotlari hisob va hisobot tizimida muhim o`rin tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya vazirligining 2016-yil 27-dekabrdagi “O'zbekiston Respublikasi budjet hisobining standarti (1-sonli BHS) «Hisob siyosati»ni tasdiqlash to'g'risida” 91-son buyrug`iga muvofiq “Hisob siyosati” standarti ishlab chiqildi.

“Budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to’g’risida”gi Yo’riqnoma budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkiliy, texnik hamda uslubiy jihatlarini to`liq yoritib beruvchi hujjat hisoblanadi. Jumladan, ushbu yo`riqnomada barcha hisob hujjatlar, bosh hisobchi va hisobchilarning huquqlari, majburiyatlari va vazifalari, budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining schyotlar rejasi va xar bir schyot bo’yicha to’liq ma’lumotlar, hisob yuritish shakli ko`rsatib berilgan. Shuningdek ushbu yo`riqnomaga 63 ta ilova berilgan bo`lib, ushbu ilovalarda hisob hujjatlari, hisob registrlari va boshqa zaruriy hujjatlarningtasdiqlangan namunaviy shakllari berilgan.

Budjet tashkilotlari hamda budjetdan mablag` oluvchilarning budjet va budjetdan tashqari mablag`lar ijrosi bo`yicha oylik, choraklik, yillik moliyaviy hisobotlarini tuzish va taqdim qilish “O’zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan mablag’ bilan ta’minlanadigan tashkilotlarning davriy moliyaviy hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo’yicha qoidalar”ga asosan tartibga solinadi. Ushbu me`yoriy hujjatda budjetdan mablag’ bilan ta’minlanadigan barcha tashkilotlarning buxgalteriya hisobotlarini tuzish, tasdiqlash hamda taqdim qilish bo`yicha qoidalari ko`rsatib o`tilgan.

“Ta'lim va tibbiyot muassasalarini moliyalashtirish mexanizmini hamda davlat moliyaviy nazorati tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida” O'zbekiston

Respublikasi Prezidentining 2017-yil 21-avgustdagi PQ-3231-sonli qarorida budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi hamda moliyaviy nazorat borasida muhim o`zgarishlar belgilab berilgan bo`lib, ularni quyidagicha aks ettirish mumkin:

1. Ta`lim va tibbiyot muassasalarida markazlashtirilgan moliya-buxgalteriya xizmatlarini tashkil qilish;

2. Respublika darajasidagi hamda hududiy ichki audit va moliyaviy nazorat xizmatlarini tashkil qilish;

3. O'zbekiston Respublikasi Iqtsiodiyot va moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasini tashkil qilish masalalari belgilab berildi.

Budjet tashkilotlarining faoliyati budjet mablag`lari yoki budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari mablag`lari hisobidanmoliyalashtiriladi.

Bugungi kunda har bir budjet tashkiloti faoliyatini moliyalashtirishda faqatgina davlat budjetiga qaram bo`lmasdan qo`shimcha daromad manbalarini topishga e`tibor qaratilmoqda. Budjet tashkilotlarining qo`shimcha daromadlarini shakllantirish tartibi to`g`risida O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 3-sentabrda 414-sonli “Budjet tashkilotlarini mablag` bilan ta`minlash tartibini takomillashtirish to`g`risida” Qarori qabul qilingan. Bu qarorda budjet tashkilotlarining qanday budjetdan tashqari daromadlarga ega bo`lishi va ularni qay tartibda sarflashi ko`rsatib berilgan. Budjet tashkilotlari ega bo`lgan ushbu budjetdan tashqari mablag`lari bo`yicha daromadlari va xarajatlari buxgalteriya hisobi “Budjet tashkilotlari daromadlari va xarajatlarining buxgalteriya hisobi to’g’risida nizom”ga asosan tartibga solinadi.

Avtomobil yo`llar tizimidagi budjet tashkilotlari hamda budjetdan mablag` oluvchilar faoliyatlari belgilangan smetalar asosida tashkil qilinib moliyalashtirib boriladi. Budjet tashkilotlari moliyaviy hisobotlari tarkibida “Xarajatlar smetasining ijrosi haqida hisobot (2-shakl)” asosiy hisobot shakllaridan biri hisoblanadi. “Budjet tashkilotlari va budjet mablag’lari oluvchilarning xarajatlar smetasi va shtat jadvallarini tuzish, tasdiqlash va ro’yxatdan o’tkazish tartibi to’g’risida”gi Nizom” ushbu hisobotni shakllantirishda muhim o`rin tutadi. Ushbu nizomda budjet

tashkilotlari tomonidan budjet mablag'lari bo'yicha xarajatlar smetalarini, budjetdan tashqari mablag'lar bo'yicha daromadlar va xarajatlar smetalarini, shuningdek, vaqtinchalik xarajatlar smetalarini hamda shtatlar jadvalini tuzish, tasdiqlash va taqdim qilish tartibi keltirilgan. Bundan tashqari, mazkur smetalarni va shtatlar jadvalini ro'yxatdan o'tkazish va ularni to'g'ri tuzilganligini nazorat qilish tartibi berilgan.

Budjet tashkilotlari hamda budjetdan mablag` oluvchilarning ayrim moliyaviy hisobotlari, ma`lumki, tegishli budjet tasniflarini qo`llagan holda tuziladi. Moliyaviy hisobotlarda budjet tasnifini qo`llash "Budjet tasnifini qo'llash bo'yicha" Yo'riqnomaga muvofiq holda amalga oshiriladi. Ushbu yo`riqnomada davlat sektori hisob tizimida qo`llaniladigan barcha tasniflar keltirilgan bo`lib, budjet tashkilotlari shulardan o`zlariga tegishli bo`lgan tasniflarni qo`llaydilar.

Budjet tashkilotlari hisob tizimi keng qamrovli bo`lgani sababli unga tegishli bo`lgan qator boshqa qonunchiliklar mavjud. Ushbu me`yoriy hujjatlar tegishli buxgalteriya hisobi ma`lumotlarini shakllantirish va ularni taqdim qilish tartiblarini belgilab berishga xizmat qiladi.

UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNI DASTLABKI QIYMATINI (MHXS) ASOSIDA SHAKLLANTIRISH

Tashmanov G'olib Davronovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, "Buxgalteriya hisobi" kafedrasi dotsenti
ORCID: 0000-0002-4885-3286
email: golibbek1982@mail.ru g.tashmanov@tsue.uz

Major categories of public procurement risk and corresponding management responses

Risk category	Illustrative procurement risk	Possible indicator	Risk-management response
Integrity and compliance risk	Conflict of interest, corruption, procedural manipulation	Unusual award patterns; repeated direct awards	Enhanced review, audit trail, conflict-of-interest controls
Competition risk	Limited market participation, collusion	Single-bid procedures; low number of bidders	Market consultation, wider publication, competition review
Supplier risk	Weak financial or technical capacity	Repeated delays; poor previous performance	Supplier assessment and performance monitoring
Financial and budgetary risk	Cost overruns and inefficient pricing	Award-to-estimate ratio; abnormal unit prices	Benchmarking and expenditure control
Operational risk	Procurement delays and procedural errors	Excessive procurement cycle time	Process redesign and targeted staff support
Contract-performance risk	Delays, amendments, poor-quality delivery	Amendment frequency; delivery delays	Contract monitoring and performance guarantees
Digital risk	E-procurement system failure or poor data quality	Missing or inconsistent data	Data-validation rules and system controls
Sustainability and supply-chain risk	Environmental, social, or supply disruption risks	Supplier and supply-chain risk indicators	Due diligence and risk-sensitive contract conditions

Source: developed by the author based on OECD public procurement risk-management principles.

Recent OECD analysis emphasizes that procurement risk management should extend beyond integrity violations and consider regulatory and compliance,

operational, sustainability, economic, market, budgetary, supplier, and digital risks. Risk monitoring should also continue after control measures have been introduced in order to evaluate residual risk and identify changes in the external or internal procurement environment [3]. Complementarily, recent OECD work on integrity and responsible business conduct stresses the importance of strengthening integrity across the supply chains behind government contracts, supporting the inclusion of supplier conduct and supply-chain integrity in procurement risk assessment [6].

An effective risk-based system therefore requires not merely the preparation of a risk register but a continuous management cycle:

Risk identification - Risk assessment - Risk prioritization - Control response - Monitoring - Reassessment

This cycle transforms procurement control from a static compliance exercise into a dynamic managerial process.

PROPOSED RISK-PRIORITIZATION MODEL

For practical application, this study proposes the following author-developed Risk Priority Score (RPS), based on three principal components:

$$RPS_i = P_i \times I_i \times E_i$$

RPS_i – Risk Priority Score for procurement risk i; **P_i –** probability of the identified risk; **I_i –** potential financial, operational, legal, or reputational impact; **E_i –** exposure, reflecting the scale or significance of the procurement concerned.

The proposed RPS should be interpreted as a conceptual risk-classification tool rather than an econometric equation. If probability (P), impact (I), and exposure (E) are each assessed on a standardized scale from 1 to 5, the resulting score ranges from 1 to 125. For practical use, threshold values should be calibrated against historical procurement data, sector characteristics, and the risk appetite of the relevant public authority.

-Low risk – routine or simplified monitoring, subject to institutionally calibrated thresholds.

-Moderate risk – additional automated checks and periodic managerial review.

-High risk – enhanced ex ante or concurrent control and targeted specialist review.

-Critical risk – immediate managerial intervention, in-depth review, or audit.

The principal advantage of this approach is that controls become proportional to risk. Instead of subjecting every transaction to identical verification procedures, public authorities can use available administrative capacity more efficiently by concentrating specialist expertise on high-risk contracts while simplifying controls for repetitive and low-risk procurement.

The risk score should not be determined only by the monetary value of a contract. A relatively small procurement may involve significant integrity, competition, safety, or reputational risks, while a high-value framework agreement with strong competition, standardized specifications, reliable suppliers, and effective monitoring may present comparatively manageable risks.

Therefore, risk classification needs to combine quantitative and qualitative information.

DATA-DRIVEN RED-FLAG MONITORING

Digital public procurement creates new opportunities to operationalize risk-based management through automated risk indicators or red flags. Procurement data can be continuously analysed to identify unusual patterns requiring managerial attention.

- procurement procedures with only one bidder.
- repeated use of non-competitive procedures.
- unusually short bid-submission periods.
- abnormally high or low bid prices.
- identical or suspiciously similar bids.
- excessive bidder disqualification.
- repeated awards to the same supplier.
- significant differences between estimated and awarded contract values.
- frequent contract amendments.

- substantial increases in final contract value.
- repeated delivery delays.
- unusually concentrated procurement spending.
- newly established or high-risk suppliers winning significant contracts.

The Open Contracting Partnership's 2024 methodology presents a revised set of 73 public procurement red-flag indicators derived from academic research, international good practice, and existing implementation models. Importantly, the indicators cover risks across the procurement cycle, from planning through contract implementation, rather than focusing exclusively on the award stage [4].

However, a red flag does not automatically prove the existence of corruption, collusion, or another violation. Its primary function is to identify transactions, entities, or patterns that deserve further examination. Consequently, automated indicators should support professional judgment rather than replace it. This distinction is fundamental for developing a balanced risk-based procurement system: excessive reliance on automated flags may generate false positives, while the absence of data-driven screening can leave important patterns undetected. The OECD's 2025 updated guidelines on fighting bid rigging similarly emphasize indicators such as unusual bidding and pricing patterns and suspicious bidder behaviour as signals that procurement officials should be trained to recognize and, when appropriate, refer to competent authorities [5].

Table 2

Risk indicators for public procurement management

Risk dimension	Illustrative indicator	Interpretation	Management action
Competition risk	Single-bid share	Measures insufficient competitive pressure	Review procurement design and market access
Supplier concentration	Share of awards received by top suppliers	Detects excessive dependency	Analyse supplier diversification
Price risk	Award price / estimated price	Identifies abnormal pricing	Conduct price benchmarking

Procedural risk	Share of non-competitive procedures	Signals limited market exposure	Require additional justification
Qualification risk	Disqualified bids / total bids	Detects potentially excessive exclusion	Review qualification requirements
Contract risk	Contract amendments / total contracts	Signals weaknesses in planning or implementation	Enhanced contract review
Execution risk	Delayed contracts / completed contracts	Measures supplier or project-performance problems	Strengthen performance monitoring
Supplier risk	Previous poor-performance score	Identifies unreliable contractors	Apply risk-adjusted supplier assessment
Integrity risk	Number of automated red flags	Identifies potentially suspicious patterns	Targeted compliance review
Data-quality risk	Missing mandatory procurement fields	Measures reliability of the monitoring system	Improve validation and data governance

Source: developed by the author.

The indicators should be used jointly rather than in isolation. For example, a single-bid procedure does not necessarily represent misconduct. However, when single bidding is combined with a short submission period, repeated awards to the same supplier, abnormal pricing, and subsequent contract amendments, the combined risk profile may justify enhanced scrutiny.

Building on the indicator framework above, this study proposes an integrated author-developed Procurement Risk Index (PRI) for combining the principal dimensions of procurement risk:

$$\mathbf{PRI = w_1C + w_2S + w_3F + w_4I + w_5P + w_6D}$$

PRI – Procurement Risk Index; **C –** competition risk; **S –** supplier risk; **F –** financial risk; **I –** integrity and compliance risk; **P –** contract-performance risk; **D –** data and digital risk; $\mathbf{w_1 \ldots w_6}$ **–** weights reflecting the relative importance of each risk dimension.

For comparability, the six component scores should first be normalized to a common scale. The weights should be non-negative and sum to one ($\Sigma w_i = 1$). Their

values may then be calibrated according to procurement category, sector, contract size, institutional characteristics, historical risk experience, and policy priorities.

INSTITUTIONAL IMPLEMENTATION

First, public authorities should establish a standardized procurement risk taxonomy. Different contracting authorities should apply compatible definitions of competition, supplier, financial, integrity, operational, and contract-performance risks.

Second, risk assessment should begin during procurement planning. Early identification is particularly important because risks detected before tender publication can frequently be mitigated at a lower cost than problems discovered after contract award. Third, electronic procurement platforms should integrate automated risk indicators into their monitoring architecture. Risk dashboards may provide contracting authorities, central procurement bodies, financial-control institutions, and internal auditors with differentiated access to high-risk procurement information.

Fourth, every significant red flag should be linked to a predetermined management response. A system that identifies risks but does not specify who should review them, when intervention is required, and what corrective action is available will have limited practical effect. Fifth, risk information should be used for organizational learning. Historical data on procurement failures, contract amendments, supplier performance, audit findings, complaints, and detected irregularities should influence future procurement planning and risk parameters.

EXPECTED ECONOMIC AND MANAGEMENT EFFECT

The economic effect of risk-based procurement management can be divided into preventive, administrative, financial, and institutional components. The preventive effect arises from earlier identification of potentially problematic procurement procedures. Corrective action before contract award may prevent inefficient spending, weak competition, inappropriate specifications, or unreliable supplier selection.

The administrative effect results from proportional control. Simplifying monitoring for low-risk procurement can reduce unnecessary administrative burdens, while specialist resources can be redirected toward transactions where the potential public-finance impact is higher. The financial effect can arise through improved competition, better price benchmarking, reduced cost overruns, lower contract-failure rates, and earlier detection of inefficient expenditure patterns. The institutional effect includes stronger accountability, clearer managerial responsibility, improved audit targeting, better data quality, and a gradual transition from reactive control to preventive public procurement governance.

The expected management effect may therefore be summarized conceptually as:

Effective Risk-Based Procurement Management = Early Detection + Risk Prioritization + Proportional Control + Timely Intervention + Continuous Monitoring

The objective is not to eliminate all procurement risk. Such an objective would be economically unrealistic. Instead, public authorities should identify which risks can be accepted, which should be reduced, which require transfer or additional safeguards, and which are unacceptable because of their potential impact on public resources and procurement objectives.

CONCLUSION

The study demonstrates that risk-based approaches can significantly strengthen public procurement management by shifting institutional attention from uniform and predominantly retrospective control toward proactive identification and prioritization of procurement risks.

An effective risk-based procurement system should cover the entire procurement cycle, beginning with needs assessment and procurement planning and continuing through tendering, evaluation, contract award, implementation, payment, and performance assessment. Risk management should therefore be integrated into procurement decision-making rather than treated as a separate audit function.

The proposed framework identifies competition, integrity and compliance, supplier, financial, operational, contract-performance, sustainability, and digital risks as the main areas requiring systematic assessment. As the study's principal analytical contribution, the author-developed Risk Priority Score (RPS) and Procurement Risk Index (PRI) provide complementary mechanisms for classifying individual procurement risks and aggregating multidimensional risk indicators to determine the appropriate level of managerial attention.

A particularly important direction is the integration of risk indicators and automated red flags into electronic procurement platforms. Data-driven monitoring can enable public authorities to identify unusual bidding patterns, limited competition, abnormal prices, repeated supplier concentration, excessive disqualification, contract amendments, implementation delays, and other potentially problematic patterns at an earlier stage.

Accordingly, the improvement of public procurement management should be based on the transition from "control of every transaction in the same manner" toward "control proportional to identified risk." Such an approach allows governments to use administrative and audit resources more efficiently, strengthen preventive control, support fair competition, improve contract performance, and ultimately achieve better value for money from public expenditures.

In the long term, risk-based procurement management should become an integrated component of digital public financial management in which standardized procurement data, automated risk indicators, professional judgment, targeted control, and continuous feedback jointly support transparent, efficient, and accountable use of public resources.

REFERENCES

1. OECD (2015). Recommendation of the Council on Public Procurement. OECD/LEGAL/0411, Paris.

2. OECD (2025). Implementing the OECD Recommendation on Public Procurement in OECD and Partner Countries: 2020–2024 Report. OECD Public

Governance Reviews, OECD Publishing, Paris. DOI: 10.1787/02a46a58-en.

3. OECD (2023). Managing Risks in the Public Procurement of Goods, Services and Infrastructure. OECD Public Governance Policy Papers, No. 33, OECD Publishing, Paris. DOI: 10.1787/45667d2f-en.

4. Open Contracting Partnership (2024). Red Flags in Public Procurement: A Guide to Using Data to Detect and Mitigate Risks. Washington, D.C.

5. OECD (2025). OECD Guidelines for Fighting Bid Rigging in Public Procurement (2025 Update). OECD Publishing, Paris. DOI: 10.1787/cbe05a56-en .

6. Bozzay, E., Diesing, L., Khachani, K. and Völker, L. (2025). Linking Integrity, Business Conduct and Public Procurement: New Approaches for Sustainable Supply Chains. OECD Working Papers on International Investment, No. 2025/01, OECD Publishing, Paris. DOI: 10.1787/cfb65ff8-en.

Банк мижозларининг кредитга лаёқатлилигини баллик тизим асосида баҳолаш методикасини жорий этиш масалалари

Набиев У.Б.
ТДИУ, Банк иши кафедраси мустақил тадқиқотчиси

Глобал иқтисодий беқарорлик ва тижорат банклари ўртасидаги рақобатнинг кучайиши шароитида кредит рискларини самарали бошқариш банк барқарорлигининг энг муҳим кафолати ҳисобланади. Кредитлаш жараёнида мижозларнинг тўлов қобилиятини тўғри ва адолатли баҳолаш тизими нафақат муаммоли кредитлар (NPL) улушини қисқартиришга, балки соғлом кредит портфелини шакллантириш ва молиявий хизматлар оммабопликни оширишга олиб келади.

Анъанавий равишда тижорат банкларида мижознинг кредитга лаёқатлилиги унинг расмий молиявий ҳисоботлари, баланс кўрсаткичлари ҳамда мавжуд кредит тарихи (миқдорий кўрсаткичлар) асосида баҳолашда қўйидаги камчиликлар кўзатилади:

- **Молиявий ҳисоботларнинг ретроспектив хусусияти:** Молиявий кўрсаткичлар мижознинг ўтган даврдаги ҳолатини акс эттиради,

лекин унинг келажакдаги бозор ўзгаришларига мослашувчанлиги ёки бошқарув сифатини (истиқболдаги тўлов қобилиятини) тўлиқ башорат қила олмайди.

- **Маълумотларнинг сохталаштирилиши хавфи:** Айрим мижозлар томонидан солиққа тортишдан қочиш ёки кредит олиш имконини ошириш мақсадида молиявий ҳисоботларнинг "бўзиб" кўрсатилиши маълумотлар ишончлигини пайтириб юборади.
- **Ташқи ва ички номолиявий рискларнинг ҳисобга олинмаслиги:**

Бошқарув сифати, тармоқ ва соҳанинг ўзига хос хусусиятлари ҳамда рақобат муҳити, таъминот (гаров) ликвидлилиги ва мижознинг обрўси каби сифат кўрсаткичлари молиявий ҳисоботда акс этмайди, лекин дефолт хавфига тўғридан-тўғри таъсир кўрсатади.

Ушбу камчиликларни бартараф этиш учун миқдор ва сифат кўрсаткичларини ўзида мужассамлаштирган баллик тизим ишлаб чиқиш зарурати юзага келади.

Такомиллаштирилган баҳолаш методикаси 100 баллик интеграл тизимга асосланган бўлиб, у иккита асосий кўрсаткичлардан ташкил топади:

1. **Миқдор (Молиявий) кўрсаткичлар (QN)** — Максимал 60 балл.
2. **Сифат (Номолиявий) кўрсаткичлар (QL)** — Максимал 40 балл.

Якуний Кредит рейтинги индекси (CRI — *Credit Rating Index*) қуйидаги кўп омилли чизиқли функция орқали аниқланади:

$$CRI = w_{QN} \cdot QN_{total} + w_{QL} \cdot QL_{total}$$

Бу ерда:

- $CRI \in [0; 100]$ - мижознинг умумий интеграл бали;
- QN_{total} - миқдорий кўрсаткичлар блоки бўйича тўпланган балл ($0 \leq QN_{total} \leq 60$);
- QL_{total} - сифат кўрсаткичлар блоки бўйича тўпланган балл ($0 \leq QL_{total} \leq 40$);

• w_{QN}, w_{QL} - тегишли блокларнинг вазн коэффициентлари бўлиб, $w_{QN} + w_{QL} = 1$ шарти бажарилади. Кўп ҳолларда стандарт вазнлар $w_{QN} = 0.60$ ва $w_{QL} = 0.40$ қилиб белгиланади.

Банк мижозларининг кредитга лаёқатлилигини баҳолашда фақатгина молиявий кўрсаткичларга таяниш замонавий хавф-хатарлар ва рақобат муҳитида етарли самара бермайди. Миқдор ва сифат кўрсаткичларини тизимли бирлаштирувчи баллик баҳолаш методикаси банк риск-менежментини сифат жиҳатдан янги босқичга олиб чиқади.

Тадқиқот давомида таклиф этилган 100 баллик интеграл модель (CRI) банкларга янги ва истиқболли мижозларни қамраб олиш орқали кредит портфелини хавфсиз кенгайтириш ва операцион самарадорликни ошириш имконини беради.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. - Тошкент: "Тафаккур", 2022.

2. Altman, E. I. Financial Ratios, Discriminant Analysis and the Prediction of Corporate Bankruptcy // Journal of Finance, Vol. 23, No. 4, 1968. - pp. 589-609.

3. Sinkey, J. F. Commercial Bank Financial Management in the Financial-Services Industry. - New York: Macmillan Publishing Company, 2017. - 780 p.

4. Kahneman, D., Tversky, A. Prospect Theory: An Analysis of Decision under Risk // Econometrica, Vol. 47, No. 2, 1979. - pp. 263-291.

5. Абдуллаева Ш.З. Банк рискларини бошқариш: Илмий-амалий қўлланма. - Тошкент: "Молия", 2019. - 280 б.

6. Тоймуҳаммедов А.А. Банк иши: Дарслик. - Тошкент: "Иқтисод-Молия", 2020. - 416 б.

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA’MINLASHNING NAZARIY ASOSLARI

Tursunov Olimboy Panjiboy o‘g’li
TDIU Xalqaro ilmiy nashr bazalari bilan ishlash bo‘limi bosh mutaxassisi
olimtursunov02@gmail.com

ANNOTATSIYA

Mazkur tezisda raqamli iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlashning nazariy asoslari yoritiladi. Raqamli texnologiyalarning iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, bandlik, fiskal intizom va pul-kredit siyosatiga ta’siri tahlil qilinadi. O‘zbekiston misolida YaIM o‘sishi, inflyatsiya, AKT ulushi va axborot iqtisodiyoti ko‘rsatkichlari asosida raqamlashtirishning makroiqtisodiy barqarorlikdagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: raqamli iqtisodiyot, makroiqtisodiy barqarorlik, iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, bandlik, fiskal siyosat, pul-kredit siyosati, AKT.

KIRISH

Hozirgi bosqichda raqamli iqtisodiyot milliy iqtisodiyotning tarkibiy o‘zgarishlarini jadallashtiruvchi muhim omilga aylandi. Elektron hukumat, raqamli to‘lovlar, sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar, masofaviy bank xizmatlari va elektron tijorat iqtisodiy subyektlar o‘rtasidagi almashinuv xarajatlarini kamaytiradi, ma’lumotlarning tezkor aylanishini ta’minlaydi hamda davlatning iqtisodiy jarayonlarni monitoring qilish imkoniyatini kengaytiradi. Shu jihatdan raqamli texnologiyalar nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi, balki makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash mexanizmlariga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Makroiqtisodiy barqarorlik deganda iqtisodiy o‘sishning izchil davom etishi, inflyatsiyaning nazorat ostida bo‘lishi, bandlikning kengayishi, fiskal muvozanat va pul-kredit siyosati samaradorligining ta’minlanishi tushuniladi. Raqamli transformatsiya ushbu yo‘nalishlarda yangi imkoniyatlar yaratadi: soliq tushumlarini shaffoflashtiradi, to‘lov intizomini kuchaytiradi, aholining moliyaviy xizmatlarga kirishini osonlashtiradi va iqtisodiy qarorlar qabul qilishda real vaqt ma’lumotlaridan foydalanish imkonini beradi.

NAZARIY ASOSLAR VA TA’SIR YO‘NALISHLARI

Nazariy jihatdan raqamli texnologiyalar makroiqtisodiy barqarorlikka besh asosiy kanal orqali ta’sir qiladi. Birinchidan, raqamli platformalar va avtomatlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirib, iqtisodiy o‘sishning sifat jihatdan yangi manbalarini shakllantiradi. Ikkinchidan, raqamli to‘lovlar va elektron hisob-kitoblar pul aylanishini tezlashtiradi, yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirishga yordam beradi. Uchinchidan, elektron soliq ma’murchiligi fiskal barqarorlikni mustahkamlaydi. To‘rtinchidan, masofaviy bandlik va IT xizmatlari mehnat bozorida yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Beshinchidan, katta ma’lumotlar va raqamli monitoring inflyatsion kutilmalar, kredit faolligi va iste’mol talabini tezroq baholashga xizmat qiladi.

1-jadval. O‘zbekistonda makroiqtisodiy barqarorlik va raqamli iqtisodiyot ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
YaIM o‘sish sur’ati, %	1,6	8,2	6,1	6,3	6,7
Inflyatsiya, %	11,1	10,0	12,3	8,8	9,8
AKT qo‘shilgan qiymati ulushi, %	1,55	1,61	1,85	2,17	2,43
Axborot iqtisodiyoti va e-tijorat ulushi, %	1,82	2,30	3,06	3,56	4,08

Jadvaldan ko‘rinadiki, 2020-yildan keyin O‘zbekistonda iqtisodiy faollik tiklanib, 2024-yilda YaIM o‘sish sur’ati 6,7 foizni tashkil etgan. Shu davrda AKT sektorining YaIMdagi ulushi 1,55 foizdan 2,43 foizga, axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat ulushi esa 1,82 foizdan 4,08 foizga oshgan. Bu holat raqamli sektorning makroiqtisodiy o‘sishdagi roli kuchayib borayotganini ko‘rsatadi. Biroq inflyatsiya ko‘rsatkichlari hali ham pul-kredit siyosatini ehtiyotkor yuritishni talab qiladi.

RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNING BARQARORLIKKA TA’SIR MEXANIZMI

Yo‘nalish	Raqamli vosita	Makroiqtisodiy natija
Iqtisodiy o‘sish	AKT, platformalar, avtomatlashtirish	Samaradorlik va eksport salohiyati oshadi
Inflyatsiya	Raqamli monitoring, onlayn to‘lovlar	Talab va narx signallari tez aniqlanadi
Bandlik	IT xizmatlari, masofaviy mehnat	Yangi ish o‘rinlari va malaka talabi ortadi
Fiskal barqarorlik	E-soliq, e-xarid, e-hukumat	Soliq bazasi va shaffoflik kengayadi
Pul-kredit siyosati	Fintech, masofaviy banking	Moliyaviy inklyuziya va transmissiya kuchayadi

Raqamli texnologiyalar pul-kredit siyosati samaradorligini ham oshiradi. Masofaviy bank xizmatlari va mobil to‘lovlar aholi hamda biznesning moliyaviy tizimga kirishini kengaytiradi. Bu kredit, depozit va to‘lov operatsiyalari bo‘yicha tezkor ma’lumotlar bazasini shakllantirib, Markaziy bankning qaror qabul qilish jarayonida analitik imkoniyatlarni kuchaytiradi. Fiskal siyosatda esa elektron hisob-fakturalar, onlayn nazorat-kassa texnikasi va davlat xaridlarining raqamlashtirilishi byudjet tushumlari barqarorligi uchun muhim institutsional asos yaratadi.

Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyot bir qator xavflarni ham yuzaga keltiradi. Kiberxavfsizlik tahdidlari, raqamli tafovut, norasmiy onlayn bandlik, ma’lumotlar maxfiyligi va texnologik importga qaramlik makroiqtisodiy boshqaruvda alohida e’tibor talab qiladi. Demak, raqamli transformatsiyaning ijobiy samarasi faqat texnologiyalarni joriy etish bilan emas, balki huquqiy baza, institutsional salohiyat va inson kapitalini rivojlantirish bilan chambarchas bog‘liq.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Amaliy jihatdan raqamli iqtisodiyot orqali makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun uch yo‘nalish muhim: birinchidan, statistik va moliyaviy ma’lumotlarni yagona raqamli monitoring tizimida birlashtirish; ikkinchidan, elektron to‘lovlar va

e-soliq tizimlari orqali yashirin iqtisodiyot ulushini qisqartirish; uchinchidan, bandlik bozorida IT kasblari, masofaviy xizmatlar va raqamli tadbirkorlikni qo‘llab-quvvatlash. Ushbu chora-tadbirlar iqtisodiy o‘sishning inklyuzivligini oshirish bilan birga inflyatsiya va fiskal xavflarni oldindan baholash imkonini beradi.

Xulosa qilib aytganda, raqamli iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta’minlash nazariy jihatdan iqtisodiy o‘sish, inflyatsiya, bandlik, fiskal va pul-kredit barqarorligi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni yangicha talqin etishni talab qiladi. O‘zbekiston misolida AKT ulushi va axborot iqtisodiyoti ko‘rsatkichlarining oshishi raqamli sektorning iqtisodiy o‘sishdagi ahamiyatini kuchaytirayotganini ko‘rsatadi. Shu bois mamlakatda raqamli infratuzilmani kengaytirish, fintech va elektron tijoratni rivojlantirish, raqamli savodxonlikni oshirish, kiberxavfsizlikni mustahkamlash hamda makroiqtisodiy monitoringda katta ma’lumotlardan foydalanish ustuvor yo‘nalishlar sifatida qaralishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O‘zbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risidagi PF-6079-son Farmoni. 2020.
2. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Yalpi ichki mahsulot o‘sish sur’atlari. 2026.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Iste’mol narxlari indeksi yillik dinamikasi. 2026.
4. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: AKT sektorida yaratilgan qo‘shilgan qiymat ulushi. 2026.
5. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat ulushi. 2026.
6. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. SIAT: IT Park ishtirokchilari xizmatlari eksporti. 2026.
7. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. Pul-kredit siyosati sharhi, 2024-yil IV chorak.
8. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. To‘lov tizimlari statistikasi, 2024.
9. World Bank. World Development Indicators. Washington, DC: World Bank, 2025.
10. International Monetary Fund. Republic of Uzbekistan: Article IV Consultation and Selected Economic Indicators. 2026.
11. OECD. Digital Economy Outlook 2024. Paris: OECD Publishing, 2024.
12. World Bank. World Development Report 2016: Digital Dividends. Washington, DC, 2016.
13. UNCTAD. Digital Economy Report 2024. Geneva: United Nations, 2024.
14. BIS. Annual Economic Report: Digitalisation and the Future of Money. Basel, 2024.
15. International Labour Organization. World Employment and Social Outlook: Trends 2024. Geneva, 2024.

FUQAROLIK JAMIYATI INSTITUTLARINI MOLIYALASHTIRISHNING XORIJIY TAJRIBASI VA UNDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Po‘latov Sardor Akmal o‘g‘li
Mustaqil izlanuvchi
ORCID: 0009-0004-5199-2537
Email: saibov22@gamil.com

Annotatsiya. Tezisda fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning xorijiy modellari qiyosiy tahlil qilingan. Markaziy va Sharqiy Yevropa davlatlarida qo‘llanilayotgan “foizli filantropiya” mexanizmi — soliq to‘lovchining daromad solig‘ining muayyan qismini o‘zi tanlagan notijorat tashkilotga yo‘naltirishi — afzallik va kamchiliklari bilan ko‘rib chiqilgan. Qozog‘istonning davlat ijtimoiy buyurtmasi, grantlari va mukofotlari tizimi o‘rganilgan. Xorijiy tajribadan O‘zbekiston sharoitida foydalanish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: fuqarolik jamiyati institutlari, nodavlat notijorat tashkiloti, xorijiy tajriba, foizli filantropiya, soliq chegirmasi, davlat ijtimoiy buyurtmasi, moliyaviy barqarorlik.

Fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning yagona, barcha davlatlar uchun maqbul modeli mavjud emas. L. Salamon va H. Anxayerning “ijtimoiy kelib chiqish” nazariyasiga ko‘ra, notijorat sektorning hajmi va daromad tarkibi har bir mamlakatda davlat, bozor va jamiyat o‘rtasidagi tarixan shakllangan munosabatlarga bog‘liq. Mualliflar shu asosda liberal, sotsial-demokratik, korporativ va etatistik modellarni ajratadi [1].

Jons Xopkins universitetining qiyosiy tadqiqoti natijalari keng tarqalgan tasavvurni rad etadi. O‘rganilgan mamlakatlarda notijorat sektor daromadining qariyb yarmi o‘z faoliyatidan tushgan to‘lov va badallarga, taxminan uchdan bir qismi davlat mablag‘lariga to‘g‘ri keladi. Xususiy xayriyalar ulushi esa eng kichik bo‘lib, sakkizdan bir qism atrofida [2]. Demak, rivojlangan sektor xayriyaga emas, asosan o‘z daromadi va davlat bilan shartnomaviy munosabatlarga tayanadi.

O‘zbekistonda davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimi 2021-yilgi Konsepsiya va 2024-yil 26-avgustdagi Farmon asosida yangilanmoqda [6; 7]. Bu jarayonda xorijiy tajribani tanqidiy o‘rganish yangi mexanizmlarni tanlashda xatolardan saqlaydi.

Tezisning maqsadi — fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning xorijiy mexanizmlarini qiyoslash va ularning O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlarini baholash.

Foizli filantropiya mexanizmi. Bu mexanizmda soliq to‘lovchi o‘zi to‘lagan daromad solig‘ining qonunda belgilangan qismini tanlagan notijorat tashkilotiga yo‘naltirish to‘g‘risida soliq organiga ko‘rsatma beradi. Mablag‘ soliq to‘lovchining cho‘ntagidan emas, budjetga tushishi kerak bo‘lgan soliqdan ajratiladi. Mexanizm ilk

bor Vengriyada joriy etilgan va keyin qo‘shni davlatlarga tarqalgan [3; 4].

Davlat	Qabul qilingan yil	Yo‘naltiriladigan ulush	Xususiyati
Vengriya	1996	Jismoniy shaxslar daromad solig‘ining 1 foizi	Birinchi “bir foiz qonuni”; bir yildan so‘ng cherkovlar ham qo‘shilgan
Slovakiya	1999–2001, 2002-yildan amalda	2 foiz	2004-yildan yuridik shaxslar ham yo‘naltirishi mumkin
Litva	2002	2 foizgacha	Jismoniy shaxslar daromad solig‘idan
Polsha, Ruminiya	2003	Qonunda belgilangan ulush	Vengriya modeli asosida

N. Bullain mexanizmning to‘rt asosini ko‘rsatadi: fuqaroning soliq mablag‘i taqdirini qisman o‘zi belgilashi, notijorat tashkilotlarga erkin sarflanadigan yangi manba berish, xayriya madaniyatini shakllantirish va davlat mablag‘ini siyosiylashmagan tarzda taqsimlash [3].

Shu bilan birga, tajriba jiddiy cheklovlarni ham ko‘rsatdi. Birinchidan, hajm kichik: Vengriyada yo‘naltirilgan mablag‘ biror yilda notijorat sektor daromadining 1 foiziga yetmagan [3]. Ikkinchidan, mexanizm an’anaviy soliq imtiyozlarini siqib chiqarishi mumkin. Litva va Slovakiya uni joriy etgach, xayriya uchun soliq chegirmasini bekor qilgan [3; 4]. Uchinchidan, mablag‘ asosan ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy sohadagi, ya’ni davlatdan allaqachon mablag‘ olayotgan tashkilotlarga yo‘naltirilgan. Vengriya qonunining tashabbuskori T. Bauer o‘zini “hafsalasi pir bo‘lgan ota” deb atagan [4]. To‘rtinchidan, bu tom ma’nodagi xayriya emas, chunki fuqaro o‘z mulkidan hech narsa bermaydi.

Qozog‘iston tajribasi. Qozog‘istonda 2005-yil 12-aprelda qabul qilingan qonun nodavlat tashkilotlar uchun davlat ijtimoiy buyurtmasi, grantlar va mukofotlarni yagona hujjatda tartibga soladi. Davlat ijtimoiy buyurtmasidan olingan daromad notijorat tashkilotlar uchun soliqqa tortilmaydi. Nodavlat tashkilotlar har

yili faoliyati, daromad va xarajatlari to‘g‘risida ochiq ma’lumotlar bazasiga hisobot topshiradi; 2025-yilgi hisobot davrida 3 735 ta yillik hisobot taqdim etilgan [5].

O‘zbekiston uchun bu tajribaning ikki jihati ahamiyatli. Birinchisi — uch shaklning bitta qonunda tartibga solinishi, bu qoidalarning tarqoqligini kamaytiradi. Ikkinchisi — ijtimoiy buyurtma daromadining soliqdan ozod etilishi. O‘zbekistonda esa loyihalar doirasidagi daromad solig‘i va ijtimoiy soliq stavkalari 2027-yil 1-oktabrgacha, vaqtincha 50 foizga kamaytirilgan [7].

Qiyosiy xulosalar. Ko‘rib chiqilgan tajribadan uchta saboq chiqadi. Hech bir mexanizm yakka holda barqarorlikni ta’minlamaydi: foizli filantropiya qo‘shimcha manba, asosiy emas. Yangi mexanizm eskisining o‘rniga emas, uning yoniga joriy etilishi kerak. Davlat mablag‘ining katta ulushi o‘z-o‘zidan qaramlik belgisi emas, agar u grant emas, xizmat uchun shartnoma shaklida berilsa.

Xorijiy tajriba shuni ko‘rsatadiki, fuqarolik jamiyati institutlarining moliyaviy barqarorligi bir nechta mexanizmning uyg‘unligi orqali ta’minlanadi, ularni to‘g‘ridan to‘g‘ri ko‘chirib olish esa kutilgan natijani bermaydi. O‘zbekiston sharoiti uchun quyidagilar taklif etiladi:

1. **Foizli mexanizmni tajriba tariqasida sinab ko‘rish.** Jismoniy shaxslarga daromad solig‘ining 1 foizini reyestrga kiritilgan ijtimoiy foydali NNTga yo‘naltirish huquqini berish; avval bir-ikki hududda sinab, natijasini baholash.
2. **Mavjud soliq imtiyozlarini saqlab qolish.** Foizli mexanizm joriy etilganda homiylik uchun soliq yengilliklarini bekor qilmaslik, Litva va Slovakiya xatosini takrorlamaslik.
3. **Yo‘naltirilgan mablag‘ hisobdorligini ta’minlash.** Mablag‘ olgan har bir tashkilot uning sarfi to‘g‘risida ngo.gov.uz platformasida ochiq hisobot e’lon qilishini shart qilib qo‘yish.
4. **Qo‘llab-quvvatlash shakllarini yagona qonunda tartibga solish.** Subsidiya, grant va ijtimoiy buyurtmaga oid tarqoq normalarni bitta qonunga birlashtirish.
5. **Ijtimoiy buyurtma daromadini doimiy asosda soliqdan ozod etish.** Vaqtinchalik pasaytirilgan stavkalar o‘rniga barqaror soliq rejimini belgilash.

6. **Daromad tarkibini kuzatib borish.** NNTlar daromadining manbalar bo‘yicha tarkibi haqida har yili umumlashtirilgan statistik ma’lumot e’lon qilish, chunki bunday ma’lumotsiz siyosat samarasini baholab bo‘lmaydi.

Taklif etilgan choralar xorijiy tajribaning ijobiy jihatlarini milliy sharoitga moslab, uning ma’lum bo‘lgan kamchiliklaridan saqlangan holda qo‘llashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Salamon L. M., Anheier H. K. Social Origins of Civil Society: Explaining the Nonprofit Sector Cross-Nationally // Voluntas. — 1998. — Vol. 9, No. 3. — P. 213–248.
2. Salamon L. M., Sokolowski S. W., List R. Global Civil Society: An Overview. — Baltimore: Johns Hopkins University, Center for Civil Society Studies, 2003.
3. Bullain N. Explaining Percentage Philanthropy: Legal Nature, Rationales, Impacts // The International Journal of Not-for-Profit Law. — 2004. — Vol. 6, Issue 4. URL: https://www.icnl.org/resources/research/ijnl/explaining-percentage-philanthropy-legal-nature-rationales-impacts
4. Percentage philanthropy – does it work? // Alliance magazine. — 2004, March. URL: https://www.alliancemagazine.org/news/percentage-philanthropy-does-it-work/
5. Civic Freedom Monitor: Kazakhstan // International Center for Not-for-Profit Law. URL: https://www.icnl.org/resources/civic-freedom-monitor/kazakhstan
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-martdagi “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-6181-son Farmoni. URL: https://yuz.uz/uz/news/2021-2025-yillarda-fuqarolik-jamiyatini-rivojlantirish-kontseptsiyasini-tasdiqlash-togrisida
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 26-avgustdagi “Fuqarolik jamiyati institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada

takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni. URL: https://president.uz/oz/lists/view/7495

M U N D A R I J A

Тешабаев Т.З. Кириш сўзи 3
Абдуганиев И.А. Совершенствование требований обязательного контроля на основе цифровых технологий. 5
Абдуганиев И.А Цифровизация экономики как фактор модернизации системы обязательного контроля. 7
Alijonov E.I. Aksiyadorlik jamiyatlarida qo‘shilgan kapital hisobini ifrs talablari asosida takomillashtirish 9
Abduraxmanov R.A. Avtomobil yo‘llari tizimidagi budjet tashkilotlarida smeta tuzish va tasdiqlash tartibini takomillashtirish 13
Abduvaxidov F.T. Hisob siyosatini uslubiy, tashkiliy va texnik jihatlarini takomillashtirish 16
Abduvaxidov F.T. Hisob siyosatining nazariy asoslarini shakllantirish masalalari. 19
Aminov Sh. O’. Banklarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlar asosida transformatsiya qilish jarayonlari 23
Aminov Sh. O’. Banklar buxgalteriyasida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlar asosida taqdim etish xususiyatlari 27
Adashaliyev B.V. Financial Stability Enhancement in Enterprises Strategic Measures, Risk Management, and Future Forecasts. 30
Эргашева М.Ш. “Yashil” buxgalteriya hisobi: iqtisodiy rivojlanishidagi masalalar 39
Kozimjonov A. Moliyaviy hisobotda barqarorlikka oid axborotlarni yoritib berish yo’nalishlari 43
Kozimjonov A. Moliyaviy hisobotning nazariy yondashuvlari, konseptual asoslari va istiqbollari 48
Махкамова С.Г. Совершенствование учета готовой продукции по учетным ценам в нефтеперерабатывающей промышленности 52
Махкамова С.Г. Особенности группировки производственных затрат на нефтеперерабатывающих предприятиях. 59
Onorboev Sh.M. Boshqaruv hisobining zamonaviy usullari va ularni samaradorlikni ta’minlashdagi roli.. 66
Onorboev Sh.M. Kimyo sanoatida boshqaruv hisobini tashkil etishning xususiyatlari. 76
Сативалдиева Д.А. Получение прозрачной и структурированной информации путем применения МСФО 84
Suyunov J.O’. Habibullayeva M.M. Mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari 88

Suyunov J.O'. O'ktamov N.N. Budjet tashkilotlarida xarajatlar hisobini tashkil etish masalalalari 92
Toshpo'latov A.Sh. Agrosanoat klasterlarida xarajatlarni boshqarishda hisob siyosatining xususiyatlari. 103
Tursunaliev I.U. Ashuraliyev D. Calculation of equivalent units, evaluation of finished products and unfinished production 107
Tursunaliev I.U. Umirzokov I.B. Komilova S. Formation and Analysis of Cost Estimates in Manufacturing Enterprises. 110
Tursunaliev I.U. Sharipov Sh. The role of modern management accounting in the organization of business processes. 120
Tursunaliev I.U. Umirzokov I.B. Ikromova S.J. The concept of costs in management accounting and the importance of cost classification. 126
Ҳамдамов Б.К. Мамлакатни модернизациялаш жараёнида инвестициялар ҳисобини такомиллаштириш 131
Хайдарова Н.А. Ўзбекистон республикаси минтақаларида инвестиция жараёнларининг ҳудудий тафовутлари ва уларни бартараф этиш йўллари. 134
Хайдарова Д.Ж. Вопросы развития экономики страны на основе концепции зелёной экономики 144
Хайдарова Д.Ж. Новые возможности в сфере финансовых технологий и управления бизнесом. 153
Мирзаева С.Х. Хайдарова Д.Ж. Роль цифровых технологий в сокращении теневой экономики и повышении экономической безопасности. 157
Хайдарова Д.Ж. Реформы в развитии отраслей и регионов цифровой экономики. 159
Xolmurodova D.O. O'zbekistonning yashil buxgalteriyani joriy o'tish strategiyasidagi mavjud muammolar va imkoniyatlar 164
Омонов Ш.О. Интеграция esg-рейтинга в систему финансовой и нефинансовой отчётности общественно значимых организаций. 170
Атабаева З.А. Совершенствование учета ремонта основных средств в хозяйствующих субъектах 173
Атабаева З.А. Методы определения себестоимости готовой продукции в республики узбекистан. 179
Davlyatova S.G. Asosiy vositalarni qayta baholash amaliyotini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida takomillashtirish 186
Maxmanov X.D. Korxonalarda inventarizatsiyani tashkil etish va o'tkazish tizimini takomillashtirishning nazariy-metodologik asoslari 187
Xaydarova N.A. O'zbekiston mintaqalarida investitsiya resurslarini samarali taqsimlash va hududiy nomutanosiblikni kamaytirishning institutsional asoslari. 192

Xolmurodova D.O. O‘zbekistonning yashil buxgalteriyani joriy o‘tish strategiyasidagi mavjud muammolar va imkoniyatlar 197
Холпўлотов Р. Ў. Хўжалик юритувчи субъектларда молиявий инструментлар ҳисобини халқаро стандартлар асосида ташкил этиш тартиби 202
Пу Кебин. Порядок формирования прибыли и убытков в соответствии с национальными стандартами 209
F.T.Temirov. Fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi schyotlar rejasini qo‘llashni takomillashtirish 212
F.T.Temirov. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida buxgalteriya hisobi shakllarini takomillashtirish 218
Холпўлотов Р. Ў. Шубҳали дебиторлик қарзлари бўйича резерв ташкил этишни молиявий ҳисоботнинг халқаро стандартлар асосида такомиллаштириш 222
Мавлянова Д.М. Нефть ва газ саноати корхоналарида жорий активлар ҳажми ўзгариш тенденцияларини баҳолашда таҳлилнинг самарали усулларидан фойдаланиш 228
Maxmudova D.R. Korxonalar moliyaviy barqarorligini tan olishda buxgalteriya hisobining o‘rni va ahamiyati 246
Холбеков Р.О. Новый порядок формирования финансовых результатов - это последствия совершенствования налоговой системы в республике Узбекистан 250
Zaxirov M. Nobank kredit tashkilotlarining iqtisodiyotdagi o’rni va hisobi: O'zbekiston misolida 256
Zaxirov M. O'zbekiston Respublikasi nobank kredit tashkilotlari faoliyati..... 262
Zaxirov M. O‘zbekistonda lombardlar faoliyati va hisobi amaliyoti..... 268
Zaxirov M. Lombard tashkilotlari moliyaviy ko‘rsatkichlari: O‘zbekiston amaliyoti..... 273
Abduraxmanov R.A. Avtomobil yo`llar tizimidagi budjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobining huquqiy asoslari hamda hisob yuritish usullari 277
Tashmanov G’.D. Uzoq muddatli aktivlarni dastlabki qiymatini (mhxs) asosida shakllantirish 280
Гаппарова М. З. Перспективы внедрения отечественной системы оценки качества обслуживания в малых гостиницах республики 284
Alimov M.I. Самарадорлик тушунчаси ва кичик бизнесда уни баҳолаш усуллари..... 289
Kurbonbekov S.R. Risk-based approaches to improving public procurement management 299

Набиев У.Б. Банк мижозларининг кредитга лаёқатлилигини баллик тизим асосида баҳолаш методикасини жорий этиш масалалари 310
Tursunov O.P. Raqamli iqtisodiyot sharoitida makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning nazariy asoslari 313
Po'latov S.A. Fuqarolik jamiyati institutlarini moliyalashtirishning xorijiy tajribasi va undan O'zbekistonda foydalanish imkoniyatlari 316